

MADE IN  
UZBEKISTAN

# YEVROPA ITTIFOQI:

«HAMMA TOVARNI ISTE'MOL  
QILADIGAN, LEKIN ULARNING  
HAMMASINI HAM QABUL  
QILAVERMAYDIGAN BOZOR»



YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIGA EKSPORT QILISH  
BO'YICHA SODDALASHTIRILGAN QO'LLANMA

(meva-sabzavot mahsulotlari misolida)



# YEVROPA ITTIFOQI:

## «HAMMA TOVARNI ISTE'MOL QILADIGAN, LEKIN ULARNING HAMMASINI HAM QABUL QILAVERMAYDIGAN BOZOR»

---

**YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIGA EKSPORT QILISH  
BO'YICHA SODDALASHTIRILGAN QO'LLANMA**

(meva-sabzavot mahsulotlari misolida)

*O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo Vazirligi huzuridagi  
Eksportni rag`batlantirish agentligi topshirig'iغا asosan*

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining «Markaziy Osiyoda  
savdoni rivojlantrishga ko'maklashish» loyihasi ko'magida*

*Tuzuvchilar: OOO Pirsum, Vladimir Galperin (Riga, Latviya)*



MADE IN  
**UZBEKISTAN**

# Mundarija

Kirish ..... 5

## **1. Yevropa Ittifoqi qanday bozor? ..... 6**

Yevropa Ittifoqining yagona bozori .....	6
Yevropa Ittifoqiga eksport qilishda «GSP+» tizimi imkoniyatlaridan foydalanish .....	8
Yevropa Ittifoqi mamlakatlari meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish jarayoni (O'zbekiston Respublikasi talablar) .....	9
«REX» tizimida ro'yxatdan o'tish bosqichlari .....	12

## **2. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish jarayoni ..... 20**

Yevropa Ittifoqi bojxona organlari .....	22
Bojxona rasmiylashtiruv uchun hujjatlar .....	23
Ichki soliqqa tortish .....	24
Import boji stavkalar .....	25
Texnik talablar .....	26
Standartlashtirish .....	26

## **3. Eksport bozorlarini zabit etish ..... 28**

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari .....	28
Standart va sertifikatlar .....	30
Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari eksport qilish uchun maxsus talablar .....	31
Meva-sabzavot mahsulotlarining sanitariya nazorati .....	32
Oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish .....	34
Inson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvon mahsulotlarida pestitsidlar qoldiglari sanitariya nazorati .....	35
Fitosanitariya nazorati .....	37
Meva va sabzavot mahsulotlarining bozor standartlari .....	41
Oziq-ovqat mahsulotlarini yorliqlash va markirovkalash .....	42



#### **4. Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilishga qo'yildigan talablar (Germaniya misolidda) ..... 46**

Yangi uzilgan mevalar .....	47
Quritilgan mevalar .....	48
Yangi sabzavotlar .....	49
Quritilgan sabzavotlar .....	50
Sharbat va konsentratlar .....	51

#### **5. Yevropa Ittifoqij uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash .....** 52



## Kirish

Ushbu qo'llanma o'z mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga muvaffaqiyatli eksport qilish istagida bo'lgan ishlab chiqaruvchilar uchun mo'ljallangan. Ittifoq bozoridagi 500 milliondan ortiq iste'molchining talabi, barqaror iqtisodiyot va yuqori xarid qobiliyati hamda jozibali narx konyunkturasi hisobga olinsa, bu bozorga har qanday ishlab chiqaruvchining qiziqishi ortishi tabiiy. Agar bu bozorni qoidalarini bilsangiz va unga qat'iy amal qilgan holda harakat qilsangiz, bilingki, uni albatta zabit etasiz!

Mazkur qo'llanma bu jarayonni siz uchun osonlashtiradi. Unutmangki, Yevropa Ittifoqiga eksport qilishdan oldin mahsulotingiz ittifoqning sifat, xavfsizlik va ekologik standartlari va qonunchilik talablariga javob berishiga ishonchingiz komil bo'llishi lozim.

Qo'llanmani puxta o'rganganingizdan keyin siz Yevropa Ittifoqining yagona bozori haqida umumiy tushunchaga ega bo'lasiz. Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qilishdagi maxsus talablar haqida batafsil bilib olasiz. Bunga qo'shimcha ravishda biz mahsulotlarni eksport qilish bilan bog'liq qonunchilik va tartib-taomillar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topishingiz mumkin bo'lgan manbalarga havolalarni taqdim etamiz.



## Yevropa Ittifoqi qanday bozor?

### Yevropa Ittifoqining yagona bozori



Yevropa Ittifoqi (EI) dunyodagi eng yirik yagona bozor hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qiluvchilar ulkan bozordan juda unumli foydalanish imkoniyatiga ega: taxminan 500 million iste'molchiga ega 27 mamlakat.

Yevropa Ittifoqi bojxona  
hududiga kiritilgan  
a'zo davlatlar





Tovarlar va xizmatlar savdosi nuqtai nazaridan Yevropa Ittifoqi nafaqat bojxona ittifoqi, balki yagona prinsipga asoslangan «umumiyoq bozor» hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo 27 davlatning barchasi yagona bozor hududini tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki:

- Yevropa Ittifoqi hududida eksport tovarlari uchun bojxona to'lovlari to'lanmaydi;
- ularning barchasida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'limgagan mamlakatlardan olib kiriladigan tovarlarga yagona bojxona tarifi o'rnatilgan;
- qonuniy ravishda olib kirilgan tovarlar boshqa hech qanday bojxona nazorati choralarisiz Yevropa Ittifoqi bo'ylab erkin savdoga chiqariladi.

Yarim asr muqaddam Yevropa Ittifoqi shakqlanish tarixiga nazar tashlansa, bundan atigi yarim asr oldin u dastlab Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyati bo'lgan. Ittifoq paydo bo'lishiga asosiy sabab ushbu strategik muhim tovarlar uchun yagona qoidalarga ega umumiyoq bozor yaratish g'oyasi bo'lgan. Keyinchalik, murakkab tovarlar harakatini tartibga soluvchi xilma-xil milliy qonunlar yagona Yevropa Ittifoqi qoidalari bilan almashtirildi. Bu ittifoqning boshqa mamlakatlarda savdo qilishni istovchi kompaniyalar uchun xarajatlarni qisqartirdi va eksport jarayonlarini soddalashtirdi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo 27 mamlakatning bozori ittifoq bozoriga teng va to'liq integratsiyalashgan. Biroq uning uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun unda ishlayotgan kompaniyalar muayyan qoidalarga va halol raqobat tamoyillariga rioya qilishlari lozim.

**Savdo tizimi qanday tashkil etilgani hamda undagi asosiy qoida va tartiblari haqidagi asosiy manba Yevropa Ittifoqining Eksport bo'yicha yordam xizmatida (<https://www.eeas.europa.eu>) mavjud.**

**Ushbu xizmat orqali Yevropa Ittifoqidagi tartiblar va zarur hujjatlar haqida ma'lumot olish mumkin. Xizmat muntazam ravishda Yevropa Ittifoqidagi tariflar, talablar, imtiyozli kelishuvlar va kvotalar haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, yangi bozorlarda talab va taklifni haqidagi statistik ma'lumotlarni yangilab turadi.**

Ta'bir joizki, O'zbekiston Respublikasining mas'ul davlat idoralari ham Yevropa Ittifoqiga eksport qilmoqchi bo'lgan eksportchilar uchun ancha samarali va konstruktiv yordam ko'rsatishi mumkin. Eksport yo'nalishida eng asosiy tashkilot l'vestitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag`batlantirish agentligi hisoblanadi. Agentlik o'zbek eksportchilarini xorijiy hamkorlar bilan aloqa o'rnatish va mustahkam savdo hamkorligini yo'lga qo'yish bo'yicha moliyaviy, tashkiliy va axborot-maslahat ko'magini taqdim qiladi.



## Yevropa Ittifoqiga eksport qillishda «GSP+» tizimi imtioyatlardan foydalanish

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi bozoriga kirish faqat qat'iy talablar va hujjatbozliklardan iborat emas. O'zbekistonlik eksportchilar uchun hammaga ham berilavermaydigan imtiozlar taqdirm qilingan.

Jumladan, 2020-yil iyun oyida O'zbekiston hukumati Yevropa Ittifoqi komissiyasi «Umumiy imtiozlar tizimi»ga («GSP+») a'zo bo'lish uchun rasmiy ravishda murojaat qildi. 2021-yil 10-apreldan boshlab O'zbekiston Yevropa Ittifoqining «GSP+» umumiy imtiozlar tizimi bo'yicha benefitsiar mamlakatlar safiga qabul qilindi. Bu O'zbekistonga 6200 turdag'i mahsulotlar eksporti uchun besh yil muddatga bojxona imtiozlaridan foydalanish imkonini berdi. 2023-yil noyabr oyida mazkur imtioz keyingi besh yil muddatga uzaytirildi.

Xususan, ushbu tovarlar qatorida respublikaning tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan keng turdag'i to'qimachilik, poyabzal, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, transport vositalari, mineral o'g'itlar, neft va kimyo sanoati mahsulotlari, qurilish materiallari, keramika va metall mahsulotlari hamda texnologik uskunalar bojxona boji to'lashdan ozod etilgan.

Bevosita misollar orqali tushuntiradigan bo'lsak, «GSP+» tizimi doirasida olma va pomidor sharbatlariga nisbatan 13,3-25,5 foiz, shaftoli va o'rlik 14,1-16,5 foiz, muzlatilgan sabzavotlar 10,9 foiz, yuk tashish uchun mo'ljallangan transport vositalari 15,4 foiz, poyabzallar 11,9 foiz, konservalangan sabzavotlar 14,1 foiz, baliq go'shti va filesi 14,5 foiz, meva sharbatlari 14,5 foiz, bolalar kiyimlari 8,4 foiz va futbolkalar 9,6 foiz miqdoridagi bojxona nollashtirilib, umuman undirilmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqining 27 ta a'zo mamlakatlari tomonidan «GSP+» tizimi doirasidagi imtiozlarning qo'llanishi ularning o'zbek mahsulotlarining Yevropa bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlagan holda ularning eksport salohiyatini ortishiga xizmat qiladi.

O'z navbatida, bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tomonidan 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi davomida «GSP+» tizimi imtiozlaridan foydalanish birligina to'qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 mln. dollarga oshirish uchun sharoit yaratishi ta'kidlanganligi yaqqol isbot bo'la oladi.

Shu munosabat bilan, respublikada «GSP+» tizimi doirasidagi imtiozlarni samarali qo'llash bo'yicha tizimli ishlarni olib borish maqsadida, bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «GSP+» tizimiga qo'shilayotganda mamlakat inson va mehnat huquqlariga, atrof-muhit va iqlim muhofazasi, sifatli davlat boshqaruviga oid



27 ta asosiy xalqaro konvensiyalarni samarali amalga oshirish majburiyatini oladi va bu jarayon ustidan doimiy ravishda Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan monitoring ishlari olib boriladi.

Respublika tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalar doirasida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashni doimiy monitoring qilish bo'yicha maxsus Hukumat kommissiyasi faoliyat olib boradi.

Ushbu qo'llanma mahalliy eksport qiluvchi korxonalarga «GSP+» tizimi doirasidagi imtiyozlarni samarali qo'llash orqali Yevropa Ittifoqi bozoriga kirib borish bo'yicha zarur tushuntirishlarni beradi.

Chunki, Yevropa bozoriga mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda ushbu mahsulotlarning Yevropa Ittifoqi tomonidan ornatilgan texnik, sanitar, fitosanitar talablarga va standartlarga muvofiqligini ta'minlash talab etiladi.

Tahsil natijalariga ko'ra, hozirgi kunda Yevropa Ittifoqida yevropa bozoriga kirib keladigan 30 tadan ortiq mahsulot turlariga nisbatan texnik tartibga solish va tovarlarni markirovkalash tartiblarini ko'zda tutuvchi uyg'unlashgan standartlar (direktivalar) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

## **Yevropa Ittifoqi mamlakatlari meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish jarayoni**

*(O'zbekiston Respublikasi talablari)*



**Yevropaga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda ularning qonunlari, talab va tartiblari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida ham bir qator muhim jarayonlarni amalga oshirish talab etiladi. Dastlab, mahsulotni Yevropa bozori uchun eksportga tayyorlash va ichki hujjatlashtirish jarayonini batapsil va tushunarli tarzda yoritib berishga harakat qilamiz. Quyida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha bosqich va jarayonlar batapsil tushuntirib o'tiladi. Jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:**

### **1. Tashqi savdo shartnomasi ma'lumotlarini TSOYEATga kiritish.**

Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun eksportchi elektron raqamli imzo orqali Yangona interaktiv davlat xizmatlari portalı ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) orqali Tashqi savdo operatsiyalari yangona elektron axborot tizimiga (TSOYEAT) eksport shartnomasini kiritadi hamda shartnoma uchun identifikasiya raqamini (IDN) oladi.



### **Huquqiy asos:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-sentyabrdagi «Eksport-import operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 416-sonli Qarori (2, 3, 4-bandlar)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydag'i «O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 283-sonli Qarori (1-ilova 4, 5, 6, 7, 18-bandlar)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4699-sonli Qarori (13-band)

TSOYEATga kiritish uchun «E-Kontrakt2» dasturidan foydalangan holda tashqi savdo shartnomasi va unga tegishli hujjatlarning elektron nusxasini yaratish bo'yicha ko'satmalar

### **2. Ichki fitosanitariya sertifikati uchun shartnoma olish.**

 **Ushbu bosqichni amalga oshirish uchun mas'ul tashkilot Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'simliklar karantini va himoyasi agentligi hisoblanadi. Ushbu bosqichni (<http://karantin.uz>) orqali onlayn amalga oshirish mumkin. Onlayn oferta shartnomasini to'ldirish uchun quyidagi ma'lumotlar zarur:**

- Korxona yoki jismoniy shaxs soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)
- Tashkilot nomi
- Tashkilot rahbarining ismi
- Telefon raqami
- Inspeksiya hududi
- Yig'im summasi

Ichki fitosanitariya sertifikati uchun shartnoma olgandan so'ng bank yoki elektron to'lov tizimlari orqali sertifikat uchun to'lov amalga oshiriladi.

### **Huquqiy asos:**

O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi 611-ll sonli Qanuni

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi



O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibi to'g'risida Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-sodan qaroriga 3-ilova 7.1 band)

### 3. Ichki fitosanitariya sertifikati uchun ariza berish.



Ushbu bosqich «Assalom Agro» elektron platformasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu platforma orqali ariza topshirish uchun tadbirkordan «One ID» shaxsni identifikasiya tizimida profili yoki tadbirkor telefon raqami va elektron pochtasi talab qilinadi.

### 4. Ichki fitosanitariya tekshiruvini o'tkazish.



Ichki fitosanitariya tekshiruvi tadbirkor omborxonasi yoki yuk joylashgan manzilda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonga mas'ul xodim o'simliklar karantini va muhofazasi hududiy boshqarmasi inspektori hisoblanadi. Birlamchi ko'rlik paytda inspektor zararli organizmlarni aniqlamasma, inspektor fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtiradi. Agar inspektor tekshiruv vaqtida mahsulotlarning zararli organizmlar bilan zararlanish belgilarini aniqlasa, u laboratoriya tekshiruvlari va tegishli ekspertiza uchun nazorat qilinadigan mahsulotlar namunalarini tanlaydi. Laboratoriya natijalari ijobjiy bo'lsa, inspektor mahsulotni zararsizlantirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar zararsizlantirishning iloji bo'lmasa, ariza beruvchiga sertifikat berish rad etiladi.

Fumigatsiya jarayoni zarur hollarda Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga murojaat qilinadi. Fitosanitariya tekshiruvidan ijobjiy o'tgan mahsulotlarga «Assalom Agro» elektron platformasi orqali ichki fitosanitariya sertifikatini yuklab olinadi.



#### Huquqiy asos:

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibi to'g'risida Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-sodan qaroriga 3-ilova, 9-band)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagagi «O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» 136-sodli Qarori (1-ilova, 1-band)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagagi «O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to'g'risida» 5185-sodli Qarori (1, 3, 5-bandlar)



## 5. Yevropaga eksport qilish uchun mahsulot kelib chiqishi elektron sertifikati — «REX»



**«Registered Exporter System» («REX») Yevropa Ittifoqining «GSP+» umum-lashtirilgan imtiyozlar tizimi doirasida tovarlarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash va sertifikatlash uchun yaratilgan elektron tizim hisoblanadi.**

Ishlab chiqaruvchilar va eksportchilar mahalliy mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilish uchun «REX» elektron tizimida ro'yxatdan o'tishlari lozim. Ro'yxatdan o'tish bir marta amalga oshiriladi va mutlaqo bepul hisoblanadi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi qoshidagi «O'zbekekspertiza» AJ tomonidan tartibga solinadi.

Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilishda «O'zbekekspertiza» AJda ro'yxatdan o'tish uchun proforma yoki invoysda ko'rsatilishi shart bo'lgan «REX» raqamini olish tovarning kelib chiqishini mustaqil ravishda sertifikatlash imkonini beradi. Invoysda (hisob-faktura) ushbu «REX» raqami ko'rsatilishi kelib chiqish sertifikati sifatida tan olinadi.

### «REX» tizimida ro'yxatdan o'tish bosqichlari

**1. Xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish.** Shartnomma tuzish uchun mas'ul tashkilot «O'zbekekspertiza» AJning Imtiyozli tovarlar ekspertizasi boshqarmasi hisoblanadi. Shartnomma tuzish uchun tadbirkor yoki uning qonuniy vakili (qonuniy vakil uchun ishonchnoma talab etiladi), tadbirkorning passporti (asl nusxasi) talab etiladi.



#### Huquqiy asos:

*«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 670-1 sonli Qonuni 29.08.1998*

*O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi Bob 27*

**2. Ekspertiza o'tkazish uchun to'lovnini amalga oshirish.** Ekspertiza o'tkazish uchun to'lovnini onlayn yoki oflaysin tarzda banklar yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi.



#### Huquqiy asos:

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 944-Sonli Qarori 13.12.2019 «Tovarning kelib chiqishini sertifikatlashdirish tartibi to'g'risidagi Nizomning G-ilevasi.*

*«O'zbekekspertiza» AJ xizmatlari uchun tarif (ekspertiza o'tkazish xizmati bo'yicha narxlar)*



**3. Ekspertiza o'tkazish uchun murojaat qilish.** Ekspertiza o'tkazish uchun murojaatni «O'zbekekspertiza» AJning Imtiyozli tovarlar ekspertizasi boshqarmasiga topshiriladi. Bunda tadbirkordan quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- eksport qilinadigan tovarlarning kelib chiqish sertifikatini olish uchun ariza (asl nusxa) yoki eksport qilinadigan tovarlarning kelib chiqish sertifikatini olish uchun ariza (asl nusxa)
- tijorat hisob varag'i (invoys) (tasdiqlangan nusxasi)
- eksport qiluvchining yer uchastkasidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (nusxa) yoki eksport qilinayotgan tovarning sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar (nusxa)

#### **Huquqiy asos:**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 944-Sonli Qarori 13.12.2019*

**4. Arizani ko'rib chiqish.** Ariza «O'zbekekspertiza» AJ ning Imtiyozli tovarlar ekspertizasi boshqarmasida faoliyat olib boruvchi sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassis tomonidan ko'rib chiqiladi.

**5. Mahsulotni ekspertizadan o'tkazish.** Mahsulotni ekspertizadan o'tkazish sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassis tomonidan tadbirkor omborxonasi yoki yuk joylashgan manzilda o'tkaziladi. Ekspertiza yakunida mutaxassis tomonidan «ekspertiza dalolatnomasi» tuziladi.

#### **Huquqiy asos:**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 944-Sonli Qarori 13.12.2019 (28-32-band)*

**6. «REX» tizimida ro'yxatdan o'tish.** «REX» tizimida ro'yxatdan o'tish uchun «O'zbekekspertiza» AJning Imtiyozli tovarlar ekspertizasi boshqarmasiga muojaat qilinadi. Bunda tadbirkordan quyidagilar talab qilinadi:

- «REX» tizimida ro'yxatdan o'tish uchun ariza (asl nusxa)
- ekspertiza dalolatnomasi (nusxa)
- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma (nusxa)
- direktor tayinlash to'g'risidagi buyruq (nusxa)
- pasport (nusxa)



### **Huquqiy asos:**

*Komissiyani amalga oshirish to'g'risidagi nizom (El) № 2015/2447*

*(Bandilar 79(4), 80, 86, 11ova22-06)*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tovarlarning kelib chiqishini sertifikatlashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 944-Sonli Qarori 13.12.2019 (48-52-band)*

**7. Fitosanitariya sertifikatini olish uchun shartnoma.** Fitosanitariya sertifikatini olish uchun Qishloq xo'jaligi vazirligiga huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi rasmий veb-sayti (<http://karantin.uz>) orqali oferta shartnomasi to'ldiriladi.

Oferta shartnomasini to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:

- korxona yoki jismoniy shaxsning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
- tashkilot nomi;
- tashkilot rahbarining ismi, familiyasi va otasining ismi;
- tashkilot turi (xo'jalik yurituvchi sub'ekt, byudjet);
- telefon raqami;
- inspeksiya hududi;
- yig'im summasi;
- transport soni.

Fitosanitariya sertifikati uchun shartnoma olgandan so'ng bank yoki elektron to'lov tizimlari biriga sertifikat uchun to'lov amalga oshiriladi.



### **Huquqiy asos:**

*O'zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» gi 611-ll sonli Qonuni 29.04.2004y. (1-19 moddalar)*

*O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (367-375 moddalar)*

*O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibi to'g'risida Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga 3-1lova, 15-modda)*

**8. Fitosanitariya sertifikatini olish uchun ariza topshirish.** Ushbu bosqichda arizani onlayn tarzda «Yagona darcha» (<http://singlewindow.uz>) elektron tizimi orqali topshiriladi. Onlayn ariza topshirish uchun tadbirkordan elektron raqamli imzo talab



etiladi. Onlayn arizada ariza beruvchi, eksport va import qiluvchi va tovarlar haqida ma'lumot bo'lishi kerak.

**9. Fitosanitariya tekshiruvidan o'tkazish.** Fitosanitariya tekshiruvini o'simliklar karantini chegara o'tkazish punktida o'simliklar karantini va himoyasi bo'limi inspektorini amalga oshiradi. Inspektor tomonidan birlamchi ko'rlik amalga oshirilib, mahsulotlardan namuna olish dalolatnomasituziladi. Tekshiruvdan ijobji o'tgan mahsulotlar uchun sertifikat nusxasini «Yagona darcha» tizimidagi shaxsiy kabinetdan olish mumkin.



#### Huquqiy asos:

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyuldaggi «O'simliklar karantini to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-484-soni Qonuni (12, 30-moddalar)

O'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish tartibi to'grisida Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga 3-ilova, 11, 18-bandlar)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-martdagagi «O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'grisida» 136-soni Qarori (Qaroriga 1-ilova, 1-band)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldaggi «O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to'grisida» 5185-soni Qarori (1,3,5-bandlar)

**10. Yuk tashishni avtomobil transportida tashkil qilish.** Yuk tashishni tashkil qilish uchun tadbirdor xalqaro logistika xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziysi mavjud bo'lgan transport kompaniyasiga murojaat qiladi. Murojaat vaqtida eksportchidan «o'rov varagi» va yuk haqida ma'lumot talab etiladi. Xalqaro logistika xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziysi mavjud bo'lgan transport kompaniyalar ro'yxatini bilan ushbu ilova orqali tanishish mumkin <https://www.logistika.uz/en/carriers/?subsection=AUTO>

Tadbirkor transport kompaniyasiga kerakli ma'lumotlarni bergach, ushbu kompaniya bilan xalqaro yuk tashish shartnomasi tuziladi. Shartnomaga tuzishda tadbirdorka quyidagilar kerak bo'ladi:

- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'grisidagi guvohnoma (nusxa) yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirdor;
- bank ma'lumoti (nusxa);
- tadbirdoryoki unung qonuniy vakilining pasport nusxasi;
- korxona ustavi (nusxa).



Tadbirkor transport kompaniyasi bilan shartnoma tuzgach unga to'lov uchun hisob beriladi. Transport kompaniyasiga to'lov amalga oshirilgach mahsulotni yuklash ishlari boshlanadi.

### **Huquqiy asos:**

*O'zbekiston Respublikasining Fugorolik Kodeksi (38, 39, 40-boblar)*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagji «O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalarini tasdiqlash to'grisida»gi 213-sonli Qarori (7, 10-moddalar)*

*«O'zbekiston Respublikasida transport-ekspeditorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish to'grisida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 348-sonli Qarori 09.09.2000 yil (6, 9-moddalar)*

*«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi 670-I sonli Qonuni 29.08.1998 (10, 16-moddalar)*

**11. Yukdash.** Yuklash jarayoni mahsulot joylashgan omborxona yoki yuk joylashgan manzilda amalga oshiriladi. Tovarlar va hujjatlar bilan bog'liq barcha ishlar 48 soat ichida bajarilishi kerak. 48 saatdan keyin tadbirkor yuk mashinasi va/yoki haydovchilarni ijara olish xaratjatlarini o'z zimmasiga oladi.

**12. Bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish.** Eksport deklaratsiyasini to'ldirish uchun tadbirkor o'zi yoki bojxona brokerlari yordamida lqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga qarashli elektron TIF qatnashchisining shaxsiy kabinetiga kiradi. Ushbu kabinetda bojxona yuk deklaratsiyasini onlayn shakli to'ldiriladi. Onlayn deklaratsiyani to'ldirishda tadbirkordan quyidagilar talab qilinadi:

- elektron raqamli imzo;
- tashqi savdo shartnomasining identifikatsiya raqami (IDN);
- tijorat hisob varagi (invoys) (asl nusxani skaner qilingan nusxasi);
- CMR (xalqaro yuk xati) (asl nusxani skaner qilingan nusxasi);
- fitosanitariya sertifikati. Hujjatning ro'yxatga olingan raqami deklaratsiyasida ko'rsatiladi;
- CT-1 shaklidagi kelib chiqish sertifikati (nusxa) yoki A shaklidagi kelib chiqish sertifikati (nusxa) yoki umumiy shaklidagi kelib chiqish sertifikati (nusxa);

Onlayn deklaratsiya to'ldirilgach bojxona yig'imi uchun to'lov amalga oshiriladi va tadbirkor shaxsiy kabinetiga eksport deklaratsiyasi taqdim qilinadi.



### **Huquqiy asos:**

O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi (29-31-moddalar)

O'zbekiston Respublikasining 26.05.2000 yildagi «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 77-il-sonli Qonuni 17-modda)

Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomma (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qomitusining 2016-yil 29-fevraldagi 01-02/15-07-sor Qaroriga ilova) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ro'yxat raqami 2773 (4-bob)

Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda davlat bojxona xizmati organlariga taqdim etiladigan hujjatlar Ro'yxati (Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-iyuldag'i 197-sor qaroriga ilova) (1-bob)

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tartibi to'g'risida nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.02.2019 yildagi 163-sor) (6-band)

O'zbekiston Respublikasi hududini o'simlikdar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to'g'risidagi NIZOM (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.01.2018 yildagi 65-sor qaroriga 1-ilova) (5-band)

**13. Xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi.** Xavfni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimiga muvofiq quyidagi bojxona nazorati shakllari qo'llaniladi:

- «yashil yo'lak» doirasida xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi;
- «sariq yo'lak» xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi. Bojxona organi tomonidan hujjatli tekshiruv o'tkaziladi;
- «qizil yo'lak» xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi. Bojxona organi tomonidan hujjatli tekshiruv va bojxona ko'rigi amalga oshiriladi.

**14. Tovarni yetkazib berishning nazorat hujjatlarini rasmiylashtirish.** Nazorat hujjatlarini rasmiylashtirish bojxona postidagi bojxona nazorati va rasmiylashtiruv guruhi inspektor yordamida amalga oshiriladi. Bunda kerak bo'ladigan hujjatlar:

- CMR (xalqaro yuk xati) (asl nusxa);
- tijorat hisob varag'i (invoys) (asl nusxa).



Yukni yetkazib berishni nazorat qilish kitobchasini rasmiylashtirish:

- transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi (asl nusxa);
- haydovchilik guvohnomasi (asl nusxa).

XYT daftarchasini rasmiylashtirish uchun (yuklar XYT daftarchasi qo'llanilgan holda tashilgan taqdirda):

- yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasi (TIR karnet) (asl nusxa).

Yuklar XYT daftarchasini qo'llagan holda tashilganda, yukni yetkazib berishni nazorat qilish kitobchasi rasmiylashtirmaydi.

«Eksport» bojxona rejimida bojxona yuk deklaratsiyasi «yashil» va «sariq» yo'laklar orqali bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilib, tovarlar yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini rasmiylashtirilgan holda olib chiqilayotganda, shuningdek yuk jo'natuvchilar va tashuvchilarning talabiga ko'rva maxsus bojxona plombalari chegara bojxona postlarida transport vositalarining yuk bo'limlariga o'rnatiladi.

### **Huquqiy asos:**

*1975-yildagi Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'grisidagi Bojxona konvensiyasi (19-modda)*

*O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi (19,220-moddalar)*

*O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida avto va temir yo'l transport vositalarida bojxona nazorati ostidagi tovarlar tashilganda yuk bo'limlariga maxsus bojxona plombalari qo'yish Qoidalari (Davlat bojxona qo'mitasining Qaroriga llova, 27.07.2017 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2904) (5-band)*

**15. Chegaradan o'tish.** Yukni chegaradan o'tkazishda quyidagi jarayonlarni amalga oshirish zarur:

**1. Chegara o'tkazish punktiga kirishda qayd varaqchasiini olish.**

Talablar:

- haydovchining shaxsiy ishtiropi;
- haydovchining xalqaro pasporti (asl nusxada);
- avtomobil davlat raqami.

**2. Radiatsiya va avtomobil parametrlarini avtomatik ravishda nazorat qilish.**



**3.** Fitosanitariya nazoratidan o'tish. Davlatlararo o'simliklar karantini chegara maskanida hududiy O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi inspektorii tomonidan fitosanitariya sertifikati mavjudligi tekshiriladi va yagona qayd varaqchasi belgilaydi.

**4.** Avtotransportni ko'zdan kechirish. Yuk avtotransporti davlat chegara o'tkazish punktining bojxona tekshiruv'i hududida bojxona inspektorii tomonidan ko'zdan kechiriladi va yagona qayd varaqchasida belgilanadi.

**5.** Avtotransport vositasи va tovarlarni bojxona ko'rikdan o'tkazish. Ko'rik davlat chegara o'tkazish punktining tekshiruv hududida maxsus texnikalar yordamida amalga oshiriladi. Ko'rik yakunida bojxona ko'rigi dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

**6.** Bojxona rasmiylashtiruvidan o'tish. Bojxona rasmiylashtiruv'i bojxona nazorat punktida bojxona inspektorii tomonidan amalga oshiriladi. Talablar:

- yagona qayd varaqchasi (begunok) (asl nusxa).

Avtotransport vositasiga taalluqli hujjatlar:

- transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi (asl nusxa);
- avtomobil transport bilan xalqaro yuk tashish uchun ruxsatnoma (asl nusxa) xorijiy avtomobillar uchun;
- tez buziladigan mahsulotlarni tashish uchun ruxsatnoma (asl nusxa) tez buziladigan mahsulotlar tashilayotganda.

Tovarga taalluqli hujjatlar:

- eksport bojxona deklaratasiyasi (nusxa);
- yukni yetkazib berishni nazorat qilish kitobchasi (asl nusxa) yoki yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasi (TIR karnet) (asl nusxa) yuklar XYT daftarchasi qollanilgan holda tashilgan taqdirda;
- CMR (xalqaro yuk xati) (asl nusxa);
- tijorat hisob varag'i (invoys) (asl nusxa).

Haydovchiga/tashuvchiga taalluqli hujjatlar:

- Haydovchingning yoki yukga hamroh bo'lgan shaxsning xalqaro pasport (asl nusxa).

**7.** Pasport nazoratidan o'tish. Nazoratidan amalga oshiriladi. Bunda haydovchidan xalqaro passport va yagona qayd varaqchasi talab etiladi.

**8.** Chegara o'tkazish punktidan chiqishda qayd varaqchasi topshirish.



## 2

## Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish jarayoni

 **Yevropa Ittifoqining Bojxona kodeksi** — bu a'zo bo'limgan mamlakatlar bilan savdo qilishda Yevropa Ittifoqi bojxona organlarining ishini tartibga soluvchi qoidalar to'plami. Ular ittifoqqa a'zo barcha mamlakatlarda bojxona tartib-tamoyillarining yagonaligi va shaffofligini ta'minlash uchun zarur.



### Huquqiy asos:

- *Yevropa Ittifoqining Bojxona kodeksi (Nizom (E) No 952/2013).*

*Tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tish («EORl» raqami). «EORl» raqami Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning bojxona organi tomonidan bojxona qonunchiligi bilan tartibga solinadigan faoliyatda ishtirok etuvchi barcha tadbirkorlik subyektlariga beriladigan identifikatsiya kodi hisoblanadi. Ushbu kod ittifoqning bojxona hududidan tashqarida bo'lgan norezident korxonalarining eksport qilishlari uchun zarurdir. Ushbu raqamdan Yevropa Ittifoqi bojxona organlari bilan bo'ladigan barcha operatsiyalar uchun foydalaniлади.*





«EORI» raqamini birinchi marta olinganda quyidagi hujjatlarga taqdim etiladi:

- bojxona deklaratsiyasi;
- kirish yig'ma deklaratsiyasi («ENS»);
- chiqish yig'ma deklaratsiyasi («EXS»).

Kirish yig'ma deklaratsiyasi («ENS»). «ENS» — bu Yevropa Ittifoqiga eksport qilishda importchi davlat bojxonalarini tomonidan talab qilinadigan deklaratsiya. «ENS» quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yuk joylari soni;
- eksportchi haqida ma'lumot;
- importchi haqida ma'lumot;
- yukning og'irligi va hokazo.

 **«ENS» anketasini to'ldirish uchun ma'lumotlar Yevropa Ittifoqi Bojxona kodeksini qo'llash to'g'risidagi nizomning (Customs Code Implementing Provisions — CCP) 30A-ilovasi 2-jadvalida keltirilgan bo'lib, «ENS» ushbu ilovadagi talabga muvofiq to'ldirilishi va to'ldirgan shaxs tomonidan tasdiqlanishi shart.**

Tovar Yevropa Ittifoqiga kelishidan oldin xavflarni baholashni amalga oshirish va logistika ta'minot zanjirida kechikmaslikni ta'minlash uchun barcha tovarlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlar tovarlarni Yevropa Ittifoqiga olib Kirishdan oldin («ENS») shaklida taqdim etiladi.

«ENS»ni topshirish muddati transport turiga va Yevropa Ittifoqining bojxona hududiga yuklarni tashish davomiyligiga qarab quyidagicha o'zgaradi:

- konteynerli dengiz yuklari (qirg'oqdag'i dengiz konteyneridan tashqari) — yuklash boshlanishidan kamida 24 soat oldin;
- havo transporti yuklari (parvoz davomiyligi 4 soatdan ortiq) — ittifoq hudo didagi birinchi aeroportga kelishidan kamida 4 soat oldin;
- temir yo'lli transporti orqali — ittifoq bojxona postiga kelishidan kamida 2 soat oldin;
- avtotransport orqali — ittifoq bojxonasi postiga kelishidan kamida 1 soat oldin.



Yevropa Ittifoqi bojxona organları tomonidan tasdiqlangan tartiblar. Tovar Yevropa Ittifoqi bojxona posti hududiga kirganida, agar tovarlar dengiz orqali tashilgan bo'lsa, 45 kundan, boshqa hollarda esa 20 kundan ko'p bo'lмаган muddatda «vaqtincha saqlash» rejimiga joylashtiriladi. Shu vaqtidan boshlab tovar bojxona organları tomonidan tasdiqlangan rejim belgilanmaguncha yoki maqsadi aniqlanmaguncha bojxona nazorati ostida bo'ladi.

## Quyida Yevropa Ittifoqi bojxona organları tomonidan tasdiqlangan rejimlar keltirilgan:

- 1. Import.** Yevropa Ittifoqiga import qilingan tovar savdoga chiqarilishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:
  - barcha zarur bojxona to'lovleri, QQS va aksiz solig'i to'lanishi;
  - barcha zarur ruxsatnomalar va sertifikatlar taqdim etilgan bo'lishi (kvotalar, gigiyena talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqalar).
- 2. Tranzit rejimi.** Agar tovarlar Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan turli davlatlarning bojxona hududidan olib o'tilsa, rasmiy bojxona rasmiylashtiruv qabul qiluvchi mammalakatning bojxona organlariga o'tkaziladi.
- 3. Bojxona ombori rejimi.** Bojxona hududiga olib kirilgan va bojxona hududidan olib chiqish uchun mo'ljallangan tovar bojxona bojları, soliqlar to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choraları qo'llanilmagan holda muayyan binolarda (joylarda) bojxona nazorati ostida saqlanadi.
- 4. Bojxona hududida qayta ishlash.** Tovarni bojxona hududiga qayta ishlash maqsadida olib kirish va undan qayta ishlash mahsulotlari tarzida olib chiqish. Bunda tovar bojxona bojları va soliqlar to'flashdan shartli ozod etilgan holda olib kiriladi.
- 5. Vaqtinchalik olib kirish.** Vaqtincha foydalanish maqsadida tovarni bojxona hududiga muayyan muddatga olib kiriladigan rejim. Bunda tovar bojxona to'lovlaridan shartli ozod etilishi yoki davriy bojxona to'lovleri to'lanishi mumkin, biroq iqtisodiy siyosat choraları qo'llanilmaydi.
- 6. Erkin ombor.** Tovar muayyan joylar va hududlarda bojxona to'lovleri to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choraları qo'llanilmagan holda joylashtirishni nazarda tutadigan rejim. Muddati cheklanmagan.
- Bojxona qiymati.** Bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydalilanligan tovar qiymati. Bojxona qiymati tovarlarning Yevropa Ittifoqiga olib kirish paytidagi tijorat qiymatidan, ya'ni umumiy sotib olish narxidan, shuningdek, tovarlarni bojxona



hududiga kirish joyiga etkazib berish qiymatidan hisoblanadi. Ushbu xarajat har doim ham oldi-sotdi shartnomasida ko'satilgan narxga mos kelmaydi va maxsus tuzatishlar kiritilgan holda qo'llaniladi.

## Bojxona rasmiylashtiruv uchun hujjatlar

**Hisob-faktura** eksportchi va importchi o'rtaosida bitim tuzilganligining dalili bo'lgan moliyaviy hujjat. Ushbu hujjatda o'tkazma haqida asosiy ma'lumotlarni o'zida jamlagan bo'lib, bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruv paytida taqdim qilinadi.

Bojxona qiymati deklaratasiysi Yevrokomissiyasning 2015/2446 va 2015/2447-sonli qoidalariga (EEC) muvofiq bojxona organlariga taqdim etilishi lozim.

**Bojxona qiymati** tovar qiymati va Yevropa Ittifoqi chegarasini birinchi marta kesib o'tishidan oldin amalga oshirilgan barcha xarajatlar (transport, sug'urta va boshqalar) yig'indisiga teng. Odatda bojxona qiymati import qilinadigan tovarlar uchun to'lanadigan yoki to'lanishi kerak bo'lgan narx asosida belgilanadi. Ba'zi hollarda tovarlarni import qilish bo'yicha bitim qiymati uni oshirish yoki kamaytirish yo'lli bilan tuzatilishi kerak.

**Transport hujjatlari.** Transport vositasiga qarab, yuklarni Yevropa Ittifoqi hududiga olib Kirishda uni ro'yxatdan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar bilan bojxona xizmatlarini ko'satish kerak:

- konosament (BL);
- «FIATA» konosamenti;
- konsignatsiya xati (CMR);
- havo transporti yuk xati (AWB);
- temir yo'l yuk xati (CIM);
- vaqtincha olib chiqish (ATA karnet);
- TIR karneti (TIR).

 **Yagona ma'muriy hujjat («SAD»). «SAD» deklaratasiysi Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'limgan davlatlar bilan savdo qilish va Yevropa Ittifoqiga qarashli bo'limgan tovarlarni Yevropa Ittifoqi ichida transportirovka qilish uchun ishlataladi.**

Yevrokengashning 952/2013-sonli nizomiga (EEC) muvofiq Yevropa Ittifoqiga olib kiriladigan tovarlar tegishli davlatning bojxona organlarida deklaratasiya qilinishi



kerak. Deklaratsiya bojxona rasmiylashtiruvni amalga oshiriladigan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning bojxona organlari tomonidan ruxsat etilgan rasmiy tillaridan birida tuziladi.

Yagona ma'muriy hujjat («SAD») bojxona tizimiga ulangan vakolatli kompyuter tizimidan foydalangan holda yoki bojxona organiga yetkazib berish bojxona organlariga yetkazib beriladi. Deklaratsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- bojxona operatsiyasida ishtirok etuvchi shaxslarning identifikatsiya ma'lumotlari (importchi, eksportchi, vakil va boshqalar);
- bojxona organlari tomonidan tasdiqlangan rejim (import, vaqtincha olib kirish, tranzit va boshqalar);
- yuk identifikatsiya ma'lumotlari («TARIC» kodi, vazni, birliklari), joylashuvi va qadogi;
- tashish usuli;
- ishlab chiqarilgan mamlakat, eksport qiluvchi va boradigan davlat to'g'risidagi ma'lumotlar;
- tijorat va moliyaviy ma'lumotlar («INCOTERMS», faktura qiymati, hisob-faktura valyutasi, valyuta kursi, sug'urta va boshqalar);
- ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati (import ruxsatnomalari, tekshirish sertifikatlari, kelib chiqish hujjati, transport hujjati, tijorat hisob-fakturasi);
- bojxona to'lovlarini to'lash talabi (bojxona boji, QQS, aksiz solig'i va boshqalar).

## Ichki soliqqa tortish

 **Qo'shilgan qiymat solig'i. Yevropa Ittifoqiga eksport qilinadigan tovar qo'shilgan qiymat solig'iga (QQS) tortilib, import rejimiga bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda undiriladi. Agar tovar Yevropa Ittifoqiga a'zo bir davlatga olib kirilib, lekin boshqa davlatda iste'mol qilish yoki foydalanish uchun mo'ljalangan bo'lsa, ularga QQS bo'yicha kechiktirish rejimi qo'llanilishi mumkin. Bunda QQS import mamlakatida emas, balki iste'mol mamlakatida undiriladi. Soliq iste'molchi davlat tomonidan belgilangan stavkalar va qoidalarga binoan undiriladi.**

Tovar uchun QQS stavkasini ittifoqning Eksportga ko'mak xizmati ([www.eeas.europa.eu](http://www.eeas.europa.eu)) elektron tizimiga joylashtirib boriladi. Tizim orqali soliq stavkasini bilish jarayonida eksportchi va importchi mamlakatni ko'rsatish lozim. Chunki Yevropa Ittifoqiga



a'zo mamlakatlarda chegara umumiyl bo'sada, soliq tizimi har bir davlat uchun alo-hida bo'lib, o'z navbatida soliq stavkalari ham turlichal belgilangan.

Import bo'yicha QQSni to'lash bojxona bojini to'lash bilan bir xil tarzda amalga os-hiriladi. Soliq solinadigan shaxs «SAD» deklaratsiyasini to'ldiradi va bojxona organ-lariga taqdim etadi. Unda tovarning qiymati, kelib chiqishi, qabul qiluvchisi, belgilangan joyi, narxi va vazni to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Aksiz solig'i. Bu inson salomatligi yoki atrof-muhitga zarar yetkazuvchi tovarlardan bevosita olinadigan soliq. Aksiz solig'i iste'molchi uchun mahsulot narxini oshiradi va shu bilan uning iste'molini yoki ushbu mahsulotni iste'mol qilgandan keyin qolgan chiqindilar miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

Aksiz solig'i soligan tovarlarni tashish va saqlashning umumiyl qoidalari Yevroitti-fonning 2020/262/EC-sonli direktivasi bilan belgilangan bo'lib, unda mineral yoqilg'ilar, tamaki va tamaki mahsulotlari, alkogol va spirtili ichimliklarni aksizosti tovarlar hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'z ehtiyojlardan kelib chiqqan holda yuqori aksiz solig'i darajasini belgilash huquqiga ega.

## Import boji stavkalari

 **Import boji stavkalari — davlatlar yoki bojxona ittifoqlari chegarasidan o'tadigan tovarlardan olinadigan soliq yoki yig'imlardir. Ulami joriy etish yoki bekor qilish xalqaro savdo siyosatining asosiy elementi hisoblanadi.**

Import qilinadigan tovarlarning boj klassifikatsiyasini aniqlash uchun Yevropa Ittifo-qida klassifikatsiya qarorini olish talab etiladi. Ushbu qarorni olish uchun eksportchi mamlakatning bojxona organiga ariza beriladi. Arizaga javob olingandan so'ng, klas-sifikatsiyalash qarori butun Yevropa Ittifoqida amal qila boshlaydi.

Klassifikatsiyalash to'g'risidagi qaror eksport qilinadigan tovarlarning boj klassifikat-siyasi to'g'risida aniq ma'lumot beradi va bojxona to'lovlarini belgilash va import lit-senziyasini olish uchun asos bo'ladi.

«Erga Omnes» atamasi hamma uchun amal qiladigan majburiyat yoki qonunlarni bildiradi. Masalan, «Erga Omnes» bojxona to'ovi barcha mamlakatlardan olib kiri-ladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.



## Texnik talablar

 **Yevropa Ittifoqi iste'molchilarini himoya qilish bo'yicha qat'iy choralari bilan juda mashhur bo'lib, Yevropa Ittifoqiga import qilinadigan tovarlar barcha texnik talablariga to'liq javob berishi kerak. Asosiy talablarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:**

- mahsulot xavfsizligi;
- standartlashtirish;
- qadoqlash va markirovkalash.

Yevropa Ittifoqiga eksport qilishda ishlab chiqaruvchi va distribyutorlar quyidagi majburiyatlarni bajarishlari lozim:

- ularning mahsulotlari umumiy xavfsizlik talablariga javob berishi;
- iste'molchilarni mahsulot bilan bog'liq xavflar va mumkin bo'lgan ehtiyyot choralari haqida ogohlantirishi;
- ular nazorat qiluvchi organlarni mahsulot xavfli deb topilgan holatlar haqida zudlik bilan xabardor qilishlari va iste'molchilarini himoya qilish uchun ularga har tomonlama yordam ko'rsatishi lozim.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar bozor va ittifoq darajasida mahsulot xavfsizligi qoidalariга rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Mahsulot umumiy xavfsizlik qoidalariга qo'shimcha ravishda ayrim mahsulot toifalarini uchun maxsus sanoat qoidalari ham joriy qilingan bo'lib, ularga ham amal qilinishi majburiy hisoblanadi.

## Standartlashtirish

 **Standartlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi siyosatining asosiy tammillari Yevropa Kengashining 1985-yildagi «Texnik muvofiqlashtirish va standartlarga yangi yondashuv to'g'risida»gi 85/C136/01-soni reglementida belgilab berilgan:**

- Yevropa Ittifoqi bozorida sotilishi uchun majburiy umumiy sanitarn-gigiyenik va xavfsizlik talablariga (masalan, sog'iqliq, xavfsizlik, iste'molchilarini himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish) javob berish;
- Texnik parametrlari boshqa mamlakatlarning standartlariga muvofiqlashtirilgan bo'lsa tovarlar Yevropa Ittifoqining umumiy talablariga javob beradi.



Muvofiqlikni tasdiqlash tartibi. Tovarlarning texnik standartlarni muvofiqlshitirish bo'yicha ko'rsatmalarda belgilangan majburiy talablarga mosligini tasdiqlash ishlab chiqaruvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo har bir davlatning vakolatlari muvofiqlikni tasdiqlash uchun javobgardir.

Markirovkalash talablari. Yevropa Ittifoqida markirovkalash qoidalarini fuqarolarga oziq-ovqat tarkibi to'g'risida to'liq ma'lumot olishga imkon beradi. Mahsulot yorlig'i iste'molchilarga oziq-ovqat sotib olayotganda ongli ravishda tanlov qilishga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqining iste'molchilarga oziq-ovqat mahsulotlari haqidagi ma'lumot berish to'g'risidagi nizomida quyidagi majburiyatlar belgilangan:

- mahsulotning energetik quвати, yog'lar, uglevodlar, oqsil, shakar va tuz miqdorini ko'rsatish;
- allergenlar (soya, yong'oq, glyuten, laktoza) mabjudligi va ularning miqdorini ko'rsatish;
- qadoqlanmagan mahsulotlar, shu jumladan restoran va kafelardagi taom va ichimliklar uchun allergen ma'lumotlarni menyuda ko'rsatish shart;
- majburiy ma'lumot uchun minimal shrift hajmi 1,2 mm kam bo'lmasligi shart.

#### Manbalar:

 <https://ec.europa.eu/environment/waste/packaging/legis.htm>

<https://www.pro-e.org>

[https://ec.europa.eu/food/safety/labelling\\_nutrition\\_en](https://ec.europa.eu/food/safety/labelling_nutrition_en)

**Qadoqlash talablari.** Birinchi talab — qadoqdagi tarkib yorliqdagi belgilangan miqdorga (og'irlilik yoki hajm) mos kelishi lozim. Importchilar qadoqning o'lchami va og'irligini tekshirib ko'radi.

Yevropa Ittifoqi xaridorlari eksportchilar oldiga karton quti kabi qayta ishlanadigan qadoqlardan foydalanish talablarini qo'yadi. Agar o'zbekistonlik meva-sabzavot va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar Yevropa Ittifoqining chakana savdo tarmoqlari bilan hamkorlik aloqalarini boshlashni istashsa, 100 foiz ekologik toza va qayta ishslash mumkin bo'lgan qadoqlardan foydalanishlari zarur.

#### Manbalar:

 <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=celex:02012R0231-20150515>

[https://ec.europa.eu/food/safety/food\\_improvement\\_agents/additives/re-evaluation\\_en](https://ec.europa.eu/food/safety/food_improvement_agents/additives/re-evaluation_en)

<http://eurlex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=CONSLEG:1976L0211:20090411:EN:PD>



### 3

## Eksport bozorlarini zabit etish

- Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qilishga tayyorgarlikni boshlash;
- Bozor imkoniyatlarini puxta o'rganish;
- Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda mahsulotingiz uchun salohiyatlari xaridorlarni qidirish;
- Xaridor mamlakatda tovarlar importiga qo'yilgan talablar hamda salohiyatlari xaridorlarning savdo shartlarini o'rganish;
- Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda Yevropa Ittifoqining importni tartibga soluvchi qonunchiligi, umumiy qoidalarini va maxsus talablarni o'rganish.

### Oziq-ovqat mahsulotlari uchun gigiyena qoidalari



**Ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar oziq-ovqat xavfsizligi uchun javobgardir. Ular xom ashyodan boshlab, ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatishning barcha bosqichlarida gigiyena talablariga rioya etilishini so'zsiz ta'minlashlari lozim. Shuningdek, mahsulotdagi mikrobiologik zararlanish darajasini muntazam monitoring qilib borishlari shart.**

Ishlab chiqarish jarayoni «HACCP» (xavfni tahlil qilish va kritik nazorat nuqtalari) tamoyillariga mos kelishi lozim. Bu mumkin bo'lgan xavflarning oldini olish uchun ishlab chiqilgan oziq-ovqat xavfsizligiga tizimli yondashuv hisoblanadi. Bu ishlab chiqarish jarayonining xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha bosqichlaridagi nazoratni o'z ichiga oladi.

Kodeks Alimentarius Komissiyasi kabi xalqaro tashkilotlar sifatsiz mahsulotlardan kelib chiqadigan kasalliklarning oldini olishning eng samarali usuli sifatida «HACCP»ni joriy qilishni tavsiya qilishadi. Yevropa Ittifoqidagi barcha oziq-ovqat sanoati korxonalaridan ishlab chiqarish tizimini HACCP tamoyillari asosida tashkil etish talab qilinadi.



### Zararli moddalar nazorati

Mahsulot tarkibida qaysi turdag'i zararli moddalar (mikotoksin, og'ir metall, nitratlar) mavjudligini tekshirishirilishi va ularning ruxsat etilgan maksimal darajalari qanday ekanligini bilib olish lozim. Laboratoriya sinovlarini o'tkazilganda mahsulotda zararli moddalarning mavjudlig'i va miqdoriy tarkibini ko'rsatadigan protokollarni olish darkor. Shu asosida mahsulotda belgilangan normalardan yuqori miqdorda zararli moddalar mavjud emasligi haqidagi tasdiqnomasi olish shart.

### Pestitsid qoldiqlarini nazorat qilish

Ekinlarni kimyoiy himoya qilish vostitalari Yevropa Ittifoqi pestitsidlar ma'lumotlar bazasiga kiritilganligini avval tekshirib ko'rish lozim. So'ngra mahsulotda pestitsidlar miqdori Yevropa Ittifoqi tomonidan ruxsat etilgan me'yordan yuqori emasligiga ishinch hosil qiling.

### Fitosanitariya nazorati

Mahsulot Yevropa Ittifoqining fitosanitariya qonunchiligiga muvofiqligini va tarkibida Yevropa Ittifoqiga olib kirish taqiqlangan mikroorganizmlar mavjud emasligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Buning uchun fitosanitariya tekshiruvini o'kazish va mahsulotni belgilangan mam-lakatga jo'natish sanasidan kamida 14 kun oldin O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikatini olish lozim.

### Oziq-ovqat yorlig'i

Mahsulotingiz yorlig'i Yevropa Ittifoqi etiketlash qoidalariga mos kelishiga ishonch hosil qiling.



## Standart va sertifikatlar

Yevropa Ittifoqidagi kompaniyalar odatda eksportchidan qonunda ko'rsatilgan me'yorlardan tashqari ishlab chiqarish jarayonlariga, mahsulot xavfsizligi va sifatiga, mahsulotni qadoqlash va yorliqlash qoidalariga rioya etilganligini tasdiqlovchi standart va sertifikatlarni alohida talab qilishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi amaliyotlari (Global GAP) yoki oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi standarti (ISO 22000, FSSC 22000, BRC va boshqalar) Yevropa qonunchiligidagi talab etilmasada, barcha kompaniyalar eksportchidan ushbu sertifikatlarni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan standartlarni joriy qilish ixtiyoriy bo'lib, Yevropa oziq-ovqat chakana sotuvchilar (EurepGAP) tomonidan ishlab chiqilgan. Ayni paytda ular dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sertifikatlashda foydalaniylmoqda.

**«GLOBAL G.A.P.»** — «HACCP» tamoyillariga asoslanadi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun jarayonini o'z ichiga oladi.

**«ISO 22000»** — Xalqaro standartlashtirish tashkiloti «ISO» tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi boshqaruvi tizimlarini tartibga soluvchi xalqaro standartlar oиласи hisoblanadi.

**«ISO 22000:2018»** — oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qadoqlash va tashishda ishtiroy etadigan barcha korxonalar uchun ishlab chiqilgan xalqaro sifat standartidir.

Ushbu standart oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun yagona va umume'tirof etilgan me'yoriy hujjat bo'lib, o'zida ko'plab xalqaro standartlarni uyg'unlashtirган. Aslida «ISO 22000:2018» «HACCP» tamoyillari va «ISO 9001» talablari asosida yaratilgan bir qator standartlar uchun asosiy hujjatga aylangan standart hisoblanadi.

**«FSSC 22000»** — oziq-ovqat xavfsizligi tizimlari uchun sertifikatlash sxemasi.

Ushbu sxema quyidagilarga asoslanadi:

- «ISO 22000:2018» standarti;
- «BSI PAS 220:2008» — Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash uchun oziq-ovqat xavfsizligining dastlabki shartlari sxemalari.

BRC (British Retail Consortium Standard for Food Safety) Britaniya chakana savdo konsortsiumi tomonidan ishlab chiqilgan oziq-ovqat xavfsizligi standarti hisoblanib, quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- «HACCP» tamoyillarini amalga oshirish;



- sifat menejmenti tizimining mavjudligi;
- ishlab chiqarish standartlari, mahsulotlar, jarayonlar va xodimlarni nazorat qilish.

## Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qilish uchun maxsus talablар



**Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilishni rejalashtirgan har bir korxona Yevropa Ittifoqi oziq-ovqat qonunchiligining umumiy qoidalari va mahsulotga qo'yiladigan maxsus talablarga javob berishi lozimligini chuqur his qilishi kerak.**

Yevropa Parlamenti va Kengashining 2002-yil 28-yanvardagi 178/2002-sonli reglamenti oziq-ovqat qonunchiligining umumiy tamoyillari va talablari, mas'ul organlar vakolatlarini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tartiblarini belgilab beradi. Unga ko'ra quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va taqsimlashda oziq-ovqat xavfsizligi qoidalariiga rioya qilish kerak:

- ozuqa;
- tirik hayvonlar;
- hali yig'ib olinmagan o'simliklar;
- dorii vositalari;
- kosmetika;
- tamaki va tamaki mahsulotlari;
- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar;
- yuqoridagi mahsulotlarning qoldiqlari va zararli chiqindilar;

Yevroittifoq hududida import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari amaldaq qonunchilik talablariga yoki ularga ekvivalent deb tan olingan standartlarga (HACCP, ISO 22000, BRC va boshqalar) mos kelishi shart. Agar Yevroittifoq va eksport qiluvchi mamlakat o'rtasida maxsus kelishuv mavjud bo'lsa, ular o'zaro tan olinadi. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va sifatini nazorat qilishga mas'ul tashkilot — Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi idorasi.



**Manba:**

<https://www.efsa.europa.eu/en/applications>



## Meva-sabzavot mahsulotlarining sanitariya nazorati



**Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi qoidalari va talablarga rioya qilish lozim.**

Umumiy gigiena qoidalari: Yevropa Parlamenti va Kengashining 2004-yil 29-apreladagi 852/2004-sonli reglamentiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchilar oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish uchun mas'uliyatni saqlab qolishlari, asosiy gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlashlari, mikrobiologik zararlanish darajasini nazorat qilishlari, barcha jarayonlarni «HACCP» tamoyillariga muvofiq tashkil qilishlari shart.

Zararli moddalarga qo'yiladigan umumiy talablar: oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalarning maksimal darajasini, jumladan, pestitsid qoldiqlari va radioaktiv zararlanish chegaralarini Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi idorasi belgilaydi.

Genetik modifikatsiyalangan organizmlar va yangi oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan maxsus talablar: genetik modifikatsiyalangan organizmlardan olingan mahsulotlar va yangi mahsulotlar yagona bozor ruxsatnomasi va xavfsizlikni baholashdan o'tishi shart.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy shartlari: Yevropa Ittifoqi qonunchiligi bilan tartibga solinadi, jumladan, tarkibi, gigiyena standartlari, qoshimchalar ro'yxati va yorilqlashga alohida talablar belgilangan.



### Manbalar:

[https://commission.europa.eu/food-farming-fisheries/food-safety-and-quality\\_en](https://commission.europa.eu/food-farming-fisheries/food-safety-and-quality_en)

[https://webgate.ec.europa.eu/regis2/public/v2/requirement/auxi/eu/eu\\_heanahc\\_legislation.pdf](https://webgate.ec.europa.eu/regis2/public/v2/requirement/auxi/eu/eu_heanahc_legislation.pdf)

Yevropa Parlamenti va oziq-ovqat gigienasi bo'yicha Kengashning 852/2004-sonli reglamentining (EC) tanlangan qoidalari amalga oshirish bo'yicha qo'llanma:

[https://food.ec.europa.eu/system/files/2018-10/biosafety\\_fn\\_legis\\_guidance\\_reg-2004-852\\_en.pdf](https://food.ec.europa.eu/system/files/2018-10/biosafety_fn_legis_guidance_reg-2004-852_en.pdf)

«HACCP» tamoyillariga asoslangan tartib-qoidalarni amalga oshirish va ayrim oziq-ovqat sanoati korxonalarida «HACCP» tamoyillarini joriy etishga ko'maklashish bo'yicha yo'rqnoma:

[https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-04/biosafety-hygiene-faq\\_all\\_business\\_en.pdf](https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-04/biosafety-hygiene-faq_all_business_en.pdf)

Oziq-ovqatlardagi zararli qoldiqlar bo'yicha batafsil savol-javoblar:

[https://food.ec.europa.eu/safety/biological-safety\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/biological-safety_en)



[https://food.ec.europa.eu/safety/chemical-safety\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/chemical-safety_en)

Pestitsid qoldiglari bo'yicha Yevropa Ittifoqi qonunchiligi:

[https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides_en)

Yevropa Ittifoqida GMOni tartibga solish bo'yicha savollar va javoblar:

[https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms_en)

Oziq-ovqat va iste'mol mahsulotlari uchun tezkor ogohlantirish tizimi (RASFF) portali:

<https://webgate.ec.europa.eu/rasff-window/screen/search>

[https://food.ec.europa.eu/safety/rasff\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/rasff_en)

Genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat:

<https://www.isaaa.org/gmapprovaldatabase/cropslist/default.as>

[https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/genetically-modified-organisms_en)

Yangi mahsulotlar:

[https://food.ec.europa.eu/safety/novel-food/novel-food-catalogue\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/novel-food/novel-food-catalogue_en)

Ozuqaviy qo'shimchalar:

<https://www.fao.org/gsfaonline/additives/index.html?print=true>

<https://data.europa.eu/data/datasets/1gxgb0yj73r4ttdchq5wyg?locale=en>

Oziq-ovqat aromatizatorlari (tam beruvchilar):

[https://food.ec.europa.eu/safety/food-improvement-agents/flavourings/eu-lists-flavourings\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/food-improvement-agents/flavourings/eu-lists-flavourings_en)

Alohibda maqsadlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari:

[https://europa.eu/youreurope/business/product-requirements/food-labelling/nutrition-declaration/index\\_en.htm](https://europa.eu/youreurope/business/product-requirements/food-labelling/nutrition-declaration/index_en.htm)



## Oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish

 **Yevropa Ittifoqiga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalar mahsulot tarkibida inson salomatligi uchun xavf tug'diradigan miqdorda zararli moddalar yo'qligiga ishonch hosil qilishi shart. Yevropa Ittifoqi chegarasida mahsulotda zararli moddalarning mavjudligi va miqdoriy tarkibini ko'ssatadigan laboratoriya sinovlari hisobotlari bilan hujjatlar taqdim qilinishi kerak. Meva-sabzavot mahsulotlarida zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal darajasiga cheklovlar o'rnatiladi:**

**mikotoksinlar** (aflatoksinlar, okratoksin A, patulin, deoksinalenol, zearalenon, fumonisins, sitrin, ergot sklerotiya va ergot alkaloidlari);

**o'simlik toksinlari** (erusik kislota, tropan alkaloidlari, gidrosiyan kislotasi, pirolizidin alkaloidlari, afyun alkaloidlari, D9-THC);

**metallar** (qo'rg'oshin, kadmiy, simob, mishyak, noorganik qalay);

**galogenlangan organik ifloslantiruvchi moddalar** (dioksinlar, dioksinga o'xshash PCBlar, dioksinga o'xshash bo'limgan PCBlar; perfloralkil moddalar: PFOS, PFOA, PFNA, PFHxS);

**zaxarli moddalarni qayta ishlash** (politsiklik aromatik uglevodorodlar (PAH): benzopiren, 4 PAH; 3-monokloropropan-1,2-diol (3-MCPD), glitsidil yog' kislotasi efirlari);

**boshqa zaxarli moddalar** (nitratlar, melamin, perxlorat).



### Manbalar

Sog'liqni saqlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bosh boshqarmasining Oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli moddalar to'g'risidagi byulleteni:

[https://food.ec.europa.eu/safety/chemical-safety/contaminants\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/chemical-safety/contaminants_en)

<https://www.iaea.org/topics/food-contaminants>

Rivojlanayotgan mamlakatlar importini roq'batlantirish markazi (CBI):

<https://www.cbi.eu/market-information>

Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi boshqarmasi (EFSA):

<http://www.efsa.europa.eu>



## Inson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvon mahsulotlarida pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya nazorati



**Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida tarkibida pestitsid qoldiqlari bo'lishi mumkin bo'lgan va inson iste'moli uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvon mahsulotlari yoki ularning qismlarini olib kirishga faqat Yevropa Ittifoqi qonunlarida belgilangan kafolatlarni to'liq bajarish sharti bilan ruxsat beriladi.**

**Yevropa Ittifoqi pestitsidlar ma'lumotlar bazasi.** Agar o'simlik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilayotganda, o'simliklarni himoya qilish uchun ishlataliligan faol moddalar Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasiga kiritilganligini teskhirish lozim. O'simliklarni himoya qilish vositalarida faqat Yevropa Ittifoqining ro'yxatiga kiritilgan moddalaridan foydalanish mumkin. Bunday moddalar Yevropa Ittifoqining pestitsidlar ma'lumotlar bazasida ro'yxatga olingan.

**Yevropa Ittifoqida pestitsidlar qoldiqlarini nazorat qilish.** Yevropa Ittifoqi qonunchiligi pestitsidlar qoldiqlarini nazorat qat'iy nazorat qilinadi. Bunda ittifoq oziq-ovqat mahsulotlaridagi pestitsidlar uchun maksimal qoldiq darajasini (MRL) belgilagan bo'lib, mahsulotlar tarkibidagi pestitsid qoldiqlari ushbu miqdordan oshmasligi shart. Agarda qoldiq miqdori me'yordan ortiq chiqasa, mahsulot Yevroittifoq hududiga kiritilmaydi yoki bojxona hududida majburiy utilizatsiya qilinadi.

Yevropa Ittifoqi chegarasiga kelishdan oldin ham, mahsulotingizda pestitsidlar belgilangan chegaradan oshib ketmasligiga ishonch hosil qilishingiz kerak.



Nazorat qilinishi kerak bo'lgan mahsulotlar ro'yxati va pestitsidlarning maksimal qoldiq darajalari (MRL) 396/2005-sonli Nizomga (EC) ilovalarida ko'rsatilgan:

I Illova	MRL qo'llaniladigan oziq-ovqatlar ro'yxati, jumladan, hayvonot mahsulotlari, mevalar, sabzavotlar, donlar, ziravorlar va ba'zi iste'mol qilinadigan o'simliklar
II Illova	Yevropa Ittifoqida maksimal qoldiq darajasi (MRL) belgilangan pestitsidlар ro'yxati
III Illova	Vaqtinchalik Yevropa Ittifoqi MRLlar ro'yxati (2008 yil 1 sentyabrgacha MRLlar faqat milliy darajada yaratilgan pestitsidlар)
IV Illova	Xavflik riski past bo'lganligi sababli MRLni aniqlashga hojat yo'q pestitsidlар ro'yxati
V Illova	0,01 mg/kg dan tashqari standart chegara qo'llaniladigan pestitsidlар ro'yxati
VI Illova	Qayta ishlangan mahsulotlar uchun MRL konvertatsiya qilish omillari ro'yxati
VII Illova	Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tovarlarni bozorga chiqarishdan oldin maxsus cheklovlarini qo'llash huquqiga ega bo'lgan fumigantlar sifatida ishlataladigan pestitsidlар ro'yxati

Yevropa Ittifoqi chegarasiga kelishdan oldin mahsulotingizda pestitsidlар belgilangan chegaradan ortiq emasligiga ishonch hosil qilishingiz kerak.

Yuqorida ro'yxatiga kiritilgan moddalar va MRLlar bo'yicha aniq ma'lumotlarni quyidagi havola orqali Yevropa Ittifoqi pestitsidlар ma'lumotlar bazasidan olish mumkin: [https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides/eu-pesticides-database\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/pesticides/eu-pesticides-database_en)

Tekshirish va nazorat qilish. Yevropa Ittifoqining mas'ul idoraları pestitsidlар qoldiqlari chegaralariga (MRLs) rioya qilish ustidan nazorat qilishga javobgardir. Pestitsidlар qoldiqlarni boshqarish bo'yicha muvofiqlashtirilgan dastur doirasida milliy laboratoriylar mahsulot namunalarini qabul qiladi va tahsil qiladi. Bundan tashqari, bunday nazorat Yevropa Ittifoqi chegarasida ham amalga oshiriladi.

### Qonunchilik

 Yevropa Parlamenti va Kengashning 2009-yil 21-oktyabrdagi 1107/2009-sonli «O'simliklarni himoya qilish vositalarini bozorga chiqarish to'g'risida»gi reglamenti;

Yevropa Parlamenti va Kengashining 2005-yil 23-fevraldagagi 396/2005-sonli «Oziq-ovqat va o'simlik va hayvon mahsulotlarida pestitsidlarning maksimal qoldiq darajasi to'g'risida»gi reglamenti;



## Axborot manbalari



Pestitsidlar qoldiqlari bo'yicha referent laboratoriylar hamjamiyati:

<http://www.crl-pesticides.eu>

Oziq-ovqat va veterinariya idorasi (FVO):

[https://food.ec.europa.eu/system/files/2016-10/fvo\\_inspect\\_prog\\_audit\\_en\\_2004.pdf](https://food.ec.europa.eu/system/files/2016-10/fvo_inspect_prog_audit_en_2004.pdf)

Oziq-ovqat mahsulotlari va urug'lardagi pestitsid qoldiqlarini tahlil qilish uchun tekshirish usullari va sifat nazorati tartiblari:

[https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-04/pesticides\\_mrl\\_guidelines\\_2020-12830.pdf](https://food.ec.europa.eu/system/files/2023-04/pesticides_mrl_guidelines_2020-12830.pdf)

## Fitosanitariya nazorati



**O'simliklar va o'simlik mahsulotlarini (shu jumladan mevalar va sabzavotlami) Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilishdan oldin, mahsulotning Yevropa Ittifoqining fitosanitariya qonunchiligiga mos kelishiga ishonch hosil qilish lozim.**

Fitosanitariya choralarining asosiy maqsadi o'simliklar va o'simlik mahsulotlari uchun zararli organizmlarning Yevropa Ittifoqiga kirishi va tarqalishining oldini olishdir.

Fitosanitariya talablari quyidagilardan iborat:

- ayrim organizmlarni Yevropa Ittifoqiga olib kirish taqiqlangan;
- ko'rsatilgan o'simliklar yoki o'simliklardan olingan mahsulotlar fitosanitariya sertifikati bilan birga olib kiritiladi.

**Umumiy talablar.** Yevropa Ittifoqiga eksport qilinayotgan o'simlik va o'simlik mahsulotlari uchun quyidagi talablar belgilangan:

- eksport qiluvchi davlat vakolatlari organi tomonidan berilgan fitosanitariya sertifikatini taqdim qilish;
- Yevropa Ittifoqiga kirish joyida bojxona tekshiruvidan o'tish;
- Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatda rasmiy ro'yxatdan o'tgan importchi tomonidan import qilinishi;
- chevara o'tkazish punktiga kelishdan oldin bojxona organlariga deklaratсиya taqdim qilinishi.



Uchinchi mamlakatlardan o'simliklar yoki o'simlik mahsulotlari xavf tug'diradigan mahsulotlari olib kelingan hollarda, a'zo davlatlar yoki Yevropa Komissiyasi vaqtincha favqulodda choralar ko'rishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligi, Yevropa Kengashining 2000-yil 8-maydagj 2000/29/EC-sonli «O'simliklar yoki o'simlik mahsulotlari uchun zararli organizmlarning kirib kelishidan va ularning tarqalishidan himoya choralarini to'grisida»gi reglamenti o'simliklar va o'simlik mahsulotlari uchun zararli organizmlarni Yevropa Ittifoqiga olib kirish yoki tarqatishga qarshi choralar va talablarni belgilaydi. Ushbu talablar quyidagi mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi:

### **1. O'simliklar va ularning urug'lari, shu jumladan:**

- mevalar (past haroratda muzlatilganlardan tashqari);
- sabzavotlar (past haroratda muzlatilganlardan tashqari);
- ildiz, piyoz va ildizpoyalar;
- kesilgan gullar;
- bargli novdalar;
- barglari saqlanib qolgan kesilgan daraxtlar;
- barglar;
- o'simlik hujayralari to'qimalar;
- gulchanglar;
- daraxtlar, kurtaklar va yog'och chiqindilari.

### **2. O'simlik mahsulotlari, shu jumladan:**

- qayta ishlamanmagan o'simlik mahsulotlari;
- qayta ishlangan o'simlik mahsulotlari.

### **Reeksport uchun fitosanitariya sertifikati.**

Agar siz yuqorida sanab o'tilgan o'simlik yoki o'simlik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilishni rejalashtirgan bo'lsangiz, ular bilan birga rasmiy «fitosanitariya sertifikati» yoki «reeksport uchun fitosanitariya sertifikati» bo'lishi kerak. Yodda tuttingki, bu talab agar mahsulot kelib chiqqan mamlakat hududidan chiqib ketganidan keyin Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lмаган boshqa davlatda saqlangan, qayta qadoqlangan yoki ajratilgan bo'lsagina amal qiladi.

Ushbu hujjatlar o'simlik va o'simlik mahsulotlarining fitosanitar holatini, yukning ras-



man ko'rikdan o'tganini, Yevropa Ittifoqiga kirish talablariga javob berishi va zararli organizmlardan holi ekanligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlar Yevropa Ittifoqining rasmiy tillaridan kamida bittasida bo'lishi kerak. Sertifikatlar eksport yoki reeksport mamlakatining vakolatli organlari tomonidan hujjatda ko'rsatilgan o'simliklar va o'simlik mahsulotlari eksport sanasidan kamida 14 kun oldin berilishi lozim.

Fitosanitariya sertifikati «O'simliklarni himoya qilish to'g'risida»gi konvensiya qoidalariga muvofiq va Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 12-sonli «Fitosanitariya choralarini xalqaro standartlari»ning Fitosanitariya sertifikatlari bo'yicha yo'rqnomasini kelib chiqqan holda beriladi.

O'zbekistnda fitosanitariya sertifikatini Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan beriladi. Sertifikatni olish uchun dastlab agentlik veb-sayti (<http://karantin.uz>) orqali oferta shartnomasi olinib, sertifikat uchun to'lov amalga oshiriladi. So'ngra sertifikatni olish uchun «Yagona darcha» (<http://singwindow.uz>) elektron tizimi orqali ariza topshiriladi.

Arizaga muvofiq fitosanitariya tekshiruvini o'simliklar karantini chegara o'tkazish punktida o'simliklar karantini va himoyasi bo'llimi inspektorlari amalga oshiradi. Inspektor tomonidan birlamchi ko'rik amalga oshirilib, mahsulotlardan namuna olish dalo-latnomasi tuziladi. Tekshiruvdan ijobiy o'tgan mahsulotlar uchun sertifikat nusxasini «Yagona darcha» tizimidagi shaxsiy kabinetdan olinadi.

**Bojxona nazorati va o'simliklar salomatligini nazorat qilish.** O'simliklar yoki o'simlik mahsulotlarini faqat Yevropa Ittifoqining ruxsat etilgan chegara o'tkazish punktlari orqali olib kirish mumkin. Ushbu chegara o'tkazish punktlarida ular kelgan paytdan boshlab bojxona tekshiruvi va rasmiy organlar tomonidan nazorat qilinadi.

Import qiluvchi yoki uning vakili yuk kelganligi to'g'risida oldindan xabar berishi va tekshirish uchun so'rov yuborishi lozim. Bojxona rasmiylashtiruv faqat ijobiy tekshiruv natijalaridan keyin amalga oshiriladi. Ushbu tekshiruv quyidagi bosqichlardan iborat:

- hujjatlarni tekshirish, sertifikatlar, hujjatlar yoki belgililar belgilangan talablarga javob berishiga ishonch hosil qilish;
- o'simliklar va o'simlik mahsulotlari so'ralgan hujjatlarda ko'rsatilganlarga mos kelishini tekshirish;
- o'simliklar va o'simlik mahsulotlari, shu jumladan yog'och qadoqlash materiallari qonunda belgilangan talablар va fitosanitariya choralariga muvofiqligini tekshirish.

Odatda tekshiruvlar Yevropa Ittifoqiga kirishda chegara postida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o'simliklar va o'simlik mahsulotlarini tashish bilan bog'liq aniq kaf-



latlar va hujjatlar olingen taqdirda, mahsulotni tekshirish va o'simliklar salomatligini nazorat qilish belgilangan ittifoq ichkarisida amalga oshirilishi mumkin.

**Eksport qiluvchilar reestri.** Yuqorida sanab o'tilgan o'simliklar, o'simlik mahsulotlari yoki boshqa mahsulotlarni import qiluvchilar, ular ishlab chiqaruvchisi yoki bor yo'qligidan qat'iy nazar, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning rasmiy reestriga kiritilishi va rasmiy ro'yxat raqamiga ega bo'lishi kerak.

**Import haqida oldindan bildirishnoma.** Import qiluvchi o'simliklar, o'simlik mahsulotlari va boshqa mahsulotlar Yevroittifoq chegarasiga yetib kelganligini to'grisida xabardor bo'lishi bilanoq, zudlik bilan kirish punktidagi bojxona organini oldindan xabardor qilishi shart. Bu orqali ittifoq hududiga zararkunandalar mavjud bo'lgan o'simliklar va o'simlik mahsulotlari avvaldan nazoratga olinib, zarur hollarda favqulodda choralar ko'rilishi ta'minlanadi.

### Qonunchilik

- O'simliklar salomatligini nazorat qilish bo'yicha Yevropa Ittifoqi qonunchiligi:

[https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/legislation/plant-health-rules\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/legislation/plant-health-rules_en)

### Manbalar

- Yevropa Komissiyasining Sog'iqliqi saqlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bosh boshqarmasi

[https://commission.europa.eu/about-european-commission/departments-and-executive-agencies/health-and-food-safety\\_en](https://commission.europa.eu/about-european-commission/departments-and-executive-agencies/health-and-food-safety_en)

- Ayrim turdag'i mahsulotlarni import qilish uchun favqulodda choralar va uzoq muddatli nazorat choralar:

[https://www.wto.org/english/tratop\\_e/safeg\\_e/safeg\\_info\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/safeg_e/safeg_info_e.htm)

- Fitosanitariya sertifikatlarini qo'shimcha dekkaratsiyalash bo'yicha Yevropa Ittifoqi talablari bo'yicha yo'riqnomasi:

[https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/trade-plants-plant-products-non-eu-countries\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/trade-plants-plant-products-non-eu-countries_en)

- Yod'ochli qadoqlash materiallari bo'yicha Yevropa Ittifoqi qoidalari:  
[https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/trade-plants-plant-products-non-eu-countries/requirements-wood—packaging-dunnage\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/trade-plants-plant-products-non-eu-countries/requirements-wood—packaging-dunnage_en)

- » «EUROPHYT» — Yevropa Ittifoqining O'simliklar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha bildirishnomalar tizimi:

[https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/europhyt/network\\_en](https://food.ec.europa.eu/plants/plant-health-and-biosecurity/europhyt/network_en)



## Meva va sabzavot mahsulotlarining bozor standartlari

Bozor standartlari mahsulotning yangi, toza, to'g'ri yorliqlangan, sifatli va belgilangan navda bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, mahsulotlar Yevropa Ittifoqining quyidagi umumiyo marketing standartlariga mosligini ta'minlaydi:

- minimal sifat talablari;
- minimal to'liqlik talablari;
- tolerantlik;
- mahsulot yorlig'i.

**Shuningdek, har bir tovar guruhlari uchun maxsus bozor standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi meva-sabzavot mahsulotlariga alohida bozor standartlari joriy qilingan:**

- mevalar: olma, citrus mevalari, kivi, shaftoli va nektarin, nok, qulupnay, uzum;
- sabzavotlar: salat bargi, karam, shirin qalampir, pomidor.

**Yevropa Ittifoqiga eksport** qilish uchun mahsulotlaringiz umumiyo yoki maxsus bozor standartlariga javob berishi kerak. Eksport qiluvchi mahsulot toza, buzilmagan, kasallik va hasharotlardan hol va belgilangan yetuklik bosqichida bo'lishi kerak. Mahsulot tegishli ravishda yorliqlangan bo'lishi, xususan, yetishtirilgan mamlakat, nav, o'lcham, vazn, sifat, sinfi va qadoqlovchi haqidagi ma'lumot bo'lishi lozim. Bozor standartlari qo'llaniladigan mahsulotlar uchun mahsulot navlari qadoqlash, transport hujjatlari, hisob-fakturalar va xarid buyurtmalarida ko'satilishi shart.

**Nazorat tartiblari.** Xaridor yoki uning rasmiy vakili Yevropa Ittifoqi nazorat organlariga mahsulotingiz haqidagi ma'lumotni (import qiluvchining identifikatsiya raqami, ishlab chiqarilgan mamlakat, mahsulot tavsifi, vazni, navi va boshqalar) hamda bozor standartlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat yoki sertifikatni taqdim etishi shart.

**Yevropa Ittifoqida bozor standartlarini tekshirish.** Yevropa Ittifoqining maxsus bozor standartlariga bo'y sunadigan mahsulot turlari uchun muvofiqlik sertifikati talab qilinadi. Yevroittifoqqa kelgach, vakolatli organ meva-sabzavot mahsulotlari ning bozor standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun tekshiruvdan o'tkazadi. Tekshiruv mahsulot hujjatlarini tekshirish yoki import qilinadigan mahsulotlarning oddiy ko'rikdan o'tkazish yoki shunchaki ko'zdan kechirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Muvofiqlikni tekshirish tugallangandan so'ng nazorat qiluvchi organlar muvofiqlik sertifikatini berishi kerak. Bu sertifikat bojxona organlariga import qilinagan mahsulotlar uchun taqdim qilinadi.



Yevropa Ittifoqi umumiy bozor standartlariga bo'yusunadigan mahsulotlar uchun odatda muvofiqlik sertifikati talab qilinmaydi. Biroq, kirish joyida Yevropa Ittifoqi bozori standartiga muvofiqligi kirish bojxona postida tekshiruv o'tkaziladi. Agar mahsulot ushbu standartlarga mos kelmasa, nazorat organi mahsulotning keyingi harakatiga to'sqinlik qiladigan nomuvofiqlik hujjatini beradi.

**Qayta ishlash uchun mo'ljallangan mahsulotlar.** Qayta ishlash uchun mo'ljallangan eksport mahsulotlari Yevropa Ittifoqi bozori standartlariga muvofiqligi tekshiruvdan o'tkazilmaydi. Bunday mahsulotlarning qadoqlarida «qayta ishlash uchun» yozuvni tushiriladi.

### **Qonunchilik**

- Yevropa Kengashining 2013-yil 17-dekabrdagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining umumiy tashkil etish to'grisida»gi 1308/2013-soni nizomi;
- Yevropa Komissiyasining 2011-yil 7-iyundagi «Meva-sabzavot va qayta ishlangan meva-sabzavotlarga nisbatan 1234/2007-soni nizom»ni qo'llash bo'yicha 543/2011-soni reglamenti.

### **Manbalar**

- Yevropa Komissiyasining Qishloq xo'jaligi va qishloq taraqqiyoti bo'yicha bosh idorasi:

[http://ec.europa.eu/agriculture/fruit-and-vegetables/marketing-standards/index\\_en.htm](http://ec.europa.eu/agriculture/fruit-and-vegetables/marketing-standards/index_en.htm)

## **Oziq-ovqat mahsulotlarini yorliqlash va markirovkalash**

Agar oziq-ovqat mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilishni rejalashtirgan bo'l sangiz, mahsulotingiz yorlig'i Yevropa Ittifoqi yorliqlash qoidalariga mos kelishi shart. Yevropa Ittifoqida sotiladigan barcha mahsulotlar yorliqlash qoidalariga to'liq muvofiq bo'lishi kerak. Ularda iste'molchilarining xarid qilish to'grisida qaror qabul qilishlar uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarga ko'rsatilishi lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarini yorliqlashda quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalashning umumiy qoidalar;
- ayrim mahsulot guruhlar uchun maxsus qoidalar;
- genetik modifikatsiyalangan (GM) oziq-ovqat mahsulotlari va yangi mahsulotlarni markirovkalash;



- maxsus ozuqaviy maqsadlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash;
- oziq-ovqat qo'shimchalarini va xushbo'ylantruvchi moddalarni markirovkalash;
- oziq-ovqat bilan aloqador tovarlar uchun mo'ljallangan materiallarni markirovkalash.

**Oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalashning umumiy qoidalari.** Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari uchun quyidagi umumiy qoidalar amal qiladi:

- mahsulot nom va savdo belgisi;
- qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sof miqdori suyuqliklar uchun hajm birliklarida (litr, millilitr) va qattiq moddalar uchun og'irlik birliklarida (kilo-gramm, gramm) ko'rsatish;
- yaroqlilik muddati «kun-oy-yil» formatida ko'rsatish;
- tez buziladigan mahsulotlar uchun «foydalanish muddati» iborasini alohida ko'rsatish;
- maxsus saqlash yoki foydalanish qoidalari;
- ishlab chiqaruvchi, qadoqlovchi yoki import qiluvchining nomi va Yevropa Ittifoqidagi manzili va aloqa ma'lumotlari;
- ishlab chiqarilgan joyi;
- foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar;
- qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun tovar partiyasini (seriya, lot) ko'rsatish.

Ushbu ma'lumotlar mahsulotni ishlab chiqarish jarayonidayoq qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining o'ramida yoki yorlig'iда ko'rsatiladi. Umumiyoq ovqatlanish uchun mo'ljallangan qadoqlangan mahsulotlarda savdo hujjalariда majburiy markirovkalash ma'lumotlari ko'rsatiladi. Bunda mahsulotning nomi, yaroqlilik muddati va ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Yorliqlardagi ma'lumotlar tushunarli, aniq ko'rinishidan, o'qiladigan va o'chirmaydigan bo'lishi va mahsulot sotiladigan davlatning rasmiy tilida bo'lishi talab etiladi. Bazi holarda xaridortomoniidan oson tushuniladigan xorijiy atamalar yoki standart iboralaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Majburiy ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, diler, distribyutor va importchiga ishchonchli bo'lishi va iste'molchilarni chalg'itmasligi sharti bilan ictiyoriy ravishda mahsulot haqida qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirishiga ruxsat beriladi.



## Oziq-ovqat bilan aloqa qilish uchun mo'ljallangan materiallarni yorliqlash.

Yevropa Parlamenti va Kengashning 2004-yil 27-oktabrdagi «Oziq-ovqat bilan aloqa qilish uchun mo'ljallangan materiallar va buyumlar to'g'risida»gi 1935/2004-sonli direktivasiga muvofiq oziq-ovqat bilan aloqa qilish uchun mo'ljallangan buyumlar, jumladan, qadoqlash materiallari va idishlar «oziq-ovqat bilan aloqa qilish uchun» yozuviga yoki shisha va vilka belgisiga ega bo'lishi lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini markirovkalash. Yevropa Ittifoqining qonunchiligiga binoan quyidagi oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shimcha markirovkalash talablari joriy qilingan:

- meva sharbatlari;
- mevali murabbo, jem, marmelad va shirin kashtan pyuresi;
- muzlatilgan oziq-ovqatlar.

### Manbalar

*Oziq-ovqat mahsulotlarini markirkalash bo'yicha qo'shimcha ma'lumot Yevropa Komissiyasining «FLIS» tizimidan olish mumkin*

[https://food.ec.europa.eu/safety/labelling-and-nutrition/food-labelling-information-system-flis\\_en](https://food.ec.europa.eu/safety/labelling-and-nutrition/food-labelling-information-system-flis_en)

## Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ixtiyoriy talab)

«Organik» mahsulotlarni Yevropa Ittifoqiga eksport qilmoqchi bo'lsangiz, ular boshqa majburiy talablarga qo'shimcha ravishda Yevropa Ittifoqining maxsus organik qonunlariga mos kelishi lozim.

Organik ishlab chiqarish usullaridan foydalangan holda mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi bozoriga joylashtirish Yevropa Kengashining 834/2007-sonli reglamentida belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi shart. Ushbu qoidalalar asosan quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulot ishlab chiqarish jarayonining butun zanjiri (ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash, tashish va saqlash) jarayonlarini xalqaro tan olingan sertifikatshtirish organi tomonidan sertifikatlash;
- oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda bazi mahsulotlar va moddalardan foydalaniш (Yevropa Komissiyasining 889/2008-sonli nizomining VIII va IX ilovalari);



- tasdiqlangan moddalar ro'yxati Organik qishloq xo'jaligi axborot tizimi (OFIS) ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lishi;
- organik ishlab chiqarishda genetik modifikatsiyalangan organizmlardan (GMO) tayyorlangan mahsulotlardan foydalanmaslik;
- Yevropa Ittifoqining «Organic» logotipdan foydalanish;
- organik ishlab chiqarish usullariga ishora qiluvchi logotip va belgilar faqat Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi nazarda tutilgan barcha shartlarga javob beradigan mahsulotlar uchun ishlatalishi;
- muayyan turdag'i mahsulot uchun tekshirish choralar va maxsus nazorat sxe-malari Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning vakolatli organlari tomonidan qo'llanilishi.

**Uchinchi mamlakatdan import qilish.** Agar ishlab chiqarish qoidalari va Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqarilgan hamda ittifoqning tekshiruv me-xanizmlariga bo'yunsa, uchinchi mamlakatlarning organik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilish mumkin.

Bunda mahsulotni Yevropa Ittifoqi tomonidan tan olingen tartibga solish agentligi yoki organi tomonidan sertifikatlanadi. Tekshiruvlarni o'tkazishga vakolatli nazorat qiluvchi organlar va muassasalar ro'yxati Organik qishloq xo'jaligi axborottizimi (OFIS) veb-saytida mavjud.

**Hujjatlarni tekshiruvi.** Import qilinadigan tovarlarga uchinchi davlatning vakolatli organi yoki agentligi tomonidan berilgan tovarlarning Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi zarur.

**Yuk tekshiruvi.** Organik mahsulotlar partiyasini Yevropa Ittifoqida erkin muomalaga chiqarish uchun zarur shartlardan biri sertifikat aslini taqdim qilish, yukni tekshirish va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning tegishli organi tomonidan tasdiqlanishi zarur.

### Qonunchilik

- Yevropa Kengashining 2007-yil 28-iyundagi «Organik mahsulotlarni organik ishlab chiqarish va markalash to'g'risida»gi 834/2007-soni reglamenti;
- Yevropa Komissiyasining 2008-yil 5-sentabrdagi 889/2008-soni «Yevropa Kengashning 834/2007-soni organik ishlab chiqarish va organik mahsulotlarni etiketlash bo'yicha organik ishlab chiqarish, etiketlash va nazorat qilish bo'yicha reglamentini amalga oshirish bo'yicha qoidalari to'g'risida»gi nizomi;
- Yevropa Komissiyasining 2008-yil 8-dekabrdagi «Yevropa Kengashning 834/2007-soni uchinchi mamlakatlardan organik mahsulotlar importini tartibga solish bo'yicha reglamentini amalga oshirish qoidalari to'g'risida»gi 1235/2008-soni nizomi;



## Manbalar

 Yevropa Ittifoqiga organik mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha tavsiyalar.  
Qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bosh boshqarmasining Organik bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa Ittifoqiga organik mahsulotlar importi bo'yicha yo'rignoma

[https://agriculture.ec.europa.eu/system/files/2018-12/guidelines-imports-organic-products\\_en\\_0.pdf](https://agriculture.ec.europa.eu/system/files/2018-12/guidelines-imports-organic-products_en_0.pdf)

Organik qishloq xo'jaligi axborot tizimi (OFIS) veb-saytida ma'lumotlarning qisqacha mazmuni, jumladan import ruxsatnomasi, tarkib ruxsatnomasi, agentliklar yoki tekshiruvilar uchun mas'ul davlat organlari ro'yxati:

[http://ec.europa.eu/agriculture/offis\\_public/index.cfm](http://ec.europa.eu/agriculture/offis_public/index.cfm)

## 4

### Meva-sabzavot mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilishga qo'yildigan talablar (Germaniya misolida)

O'zbekiston ko'plab mamlakatlarda xaridorgir bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarini eksportchisi bo'lib, dunyoning 80 tadan ziyod davlatiga 180 turdan ortiq yangi va qayta ishlangan meva-sabzavotlarni muvaffaqiyatli yetkazib bermoqda.

Yevropa Ittifoqining Eksportni qo'llab-quvvatlash xizmati veb-saytida taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 10 yil davomida O'zbekistondan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga meva-sabzavot mahsulotlari quyidagi turlari (TIFTN bo'yicha) eksport qilingan:

**07-guruh** — Sabzavotlar va ba'zi iste'mol qilinadigan ildiz va ildiz mevalari;

**08-guruh** — mevalar va yong'oqlar;

**12-guruh** — yog'li urug'lar va mevalar; boshqa urug'lar, mevalar va donlar;

**20-guruh** — sabzavotlar, mevalar, yong'oqlar yoki o'simliklarning boshqa qismlaridan qayta ishlangan mahsulotlar .



## Yangi uzilgan mevalar



**Endi O'zbekistonning Yevropa Ittifoqiga asosiy eksport pozitsiyasi bo'lgan mevalardan o'rak misolida ittifoqning tariff, bojxona, notarif va boshqa tartiblarini ko'rib chiqamiz.**

**Guruhi:** 08 (mevalar va yong'oqlar)

**TIF TN kodi:** 08091000

**Mahsulot nomi:** o'rak

**Kelib chiqish mamlakati:** O'zbekiston

**Eksport qiluvchi mamlakat:** O'zbekiston

**Savdo qiluvchi davlat:** Germaniya

**Yertkazib beriladigan davlat:** Germaniya

O'rak eksportiga quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish;
- iste'mol qilish uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvonot mahsulotlarida pestit-sidlar qoldiqlarining sanitariya nazorati;
- chorvadan olinmagan oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash;
- meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- fitosanitariya nazorati;
- oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa tekshiruvi, muvofiqligi va majburiyatları.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliqlar mavjud:

**QQS stavkasi — 7%**

**Aksiz solig'i — 0%**

**Tariflar:**

Kelib chiqishi	O'ichov birligi	Boj stavkasi	Izoh	Qonunchilik
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar solig'i	20%	Pb002	R1001/13
OSP (Umumiyl rejim), Xitoydan tashqari	Tarif imtiyozlari	16,5%	Pb002	R0978/12



## Quritilgan mevalar



**O'zbekistondan Germaniyaga quritilgan mevalarni eksport qilishda qanday talablar borligini quritilgan uzum (mayiz) misolida ko'tish mumkin.**

**Guruhi:** 08 (mevalar va yong'oqlar)

**TIF TN kodи:** 08062030

**Mahsulot nomi:** «Sultanas» navli quritilgan uzum (mayiz)

**Kelib chiqish mamlakati:** O'zbekiston

**Eksport qiluvchi mamlakat:** O'zbekiston

**Savdo qiluvchi davlat:** Germaniya

**Yertkazib beriladigan davlat:** Germaniya

Quritilgan uzumga quyidagi maxsus talablar qo'yiladi:

- oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish;
- iste'mol qilish uchun mo'ljallangan o'simlik va hayvonot mahsulotlarida pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya nazorati;
- chorvadan olinmagan oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash;
- meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqada tekshiruv, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

**QQS stavkasi — 7%**

**Aksiz solig'i — 0%**

**Tariflar:**

Kelib chiqishi	O'tchov birligi	Boj stavkasi	Izoh	Qonunchilik
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar solig'i	2,4%		R2204/99
O'zbekiston	Erkin muomalaga chiqarish (cheklash)		Cd597	R0978/12

**Izoh:** Cd597 Erkin muomalaga chiqarish uchun umumiyl qabul qilingan kirish hujjati yoki uning barcha zarur nazorat tartib-co'oidalar o'tkazilgandan va zarur hollarda jismoniy tekshirishlarning qoniqarli natijalari olingandan so'ng valo'latli organ tom'onidan to'liq va belgilangan tartibda elektron shakli taqdim ettilishi kerak.



## Yangi sabzavotlar



**O'zbekistondan Germaniyaga sabzavot eksport qilishda qanday talablar qo'yilishini karam misolida ko'rish mumkin.**

**Guruhi:** 07 (sabzavotlar, iste'mol qilinadigan ildiz va ildiz mevalari)  
**TIF TN Kodi:** 07049010

**Mahsulot nomi:** oq va qizil karam

**Kelib chiqish mamlakati:** O'zbekiston

**Eksport qiluvchi mamlakat:** O'zbekiston

**Savdo qiluvchi davlat:** Germaniya

**Yertkazib beriladigan davlat:** Germaniya

Karam uchun quyidagi maxsus talablar qo'llaniladi:

- oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish;
- iste'mol qilish uchun mo'ljallangan o'simlik va chorvadan olinmagan mahsulotlarda pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya nazorati;
- chorvadan olinmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash;
- meva va sabzavotlar uchun bozor standartlari;
- oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa tekshiruv, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq qo'llaniladi:

**QQS stavkasi — 7%**

**Atsiz solig'i — 0%**

**Tariflar:**

Kelib chiqishi	O'chov birligi	Boj stavkasi	Qonunchilik
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar solig'i	12% min 0,4 EUR 100 kg uchun	R2204/99
OSP (Umumiy rejim), Xitoydan tashqari	Tarif imtiyozlari	8,5%	R0978/12



## Quritilgan sabzavotlar



**Endi O'zbekistondan Germaniyaga quritilgan sabzavot eksport qilishda qanday talablar qo'yilishini quritilgan pomidor misolida ko'rib chiqamiz.**

**Guruhi:** 07 (sabzavotlar, iste'mol qilinadigan ildiz va ildiz mevalari)

**TIF TN kodи:** 07129030

**Mahsulot nomi:** quritilgan pomidor

**Kelib chiqish mamlakati:** O'zbekiston

**Eksport qiluvchi mamlakat:** O'zbekiston

**Savdo qiluvchi davlat:** Germaniya

**Yertkazib beriladigan davlat:** Germaniya

Quritilgan pomidor quyidagi maxsus talablarga javob berishi va tekshiruvlardan o'tishi lozim:

- oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish;
- iste'mol qilish uchun mo'ljallangan o'simlik va chорvadan olinmagan mahsulotlarda pestitsidlar qoldiqlarini sanitariya nazorati;
- chорvadan olinmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash.
- oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa tekshiruvi, muvofiqligi va majburiyatlari.

Germaniyada ushbu mahsulot uchun ichki soliq:

**QQS stavkasi — 7%**

**Aksiz solig'i — 0%**

**Tariflar:**

Ke'lib chiqishi	O'chov birligi	Boj stavkasi	Qonunchilik
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar solig'i	12,8%	R2204/99
OSP (Umumiy rejim), Xitoydan tashqari	Erkin muomallaga chiqarish (cheklash)	9,3%	R0978/12



## Sharbat va konsentratlar



**Olma sharbati misolida O'zbekistondan Germaniyaga qayta ishlangan sabzavot va meva mahsulotlarini eksport qilishga qo'yiladigan talablar bilan quyida tanishib chiqamiz.**

**Guruhi:** 20 (sabzavotlar, mevalar, yong'oqlar yoki o'simliklarning boshqa qismlarini qayta ishlashdan olingan mahsulotlar)

**TIF TN Kodi:** 20097120

**Mahsulot nomi:** olma sharbati (Brix 20 dan oshmaydi, tarkibida shakar mavjud);

**Kelib chiqish mamlakati:** O'zbekiston

**Eksport qiluvchi mamlakat:** O'zbekiston

**Savdo qiluvchi davlat:** Germaniya

**Yertkazib beriladigan davlat:** Germaniya

Olma sharbatiga quyidagi maxsus talablar qo'llaniladi:

- oziq-ovqat tarkibidagi zararli moddalarni nazorat qilish;
- horvadan olinmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya nazorati;
- oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash;
- oziq-ovqat va hayvonlar uchun ozuqa tekshiruvi, muvofiqligi va majburiyatlar.

Germaniya solqi tizimi ushbu mahsulot uchun quyidagi ichki soliq stavkalarini belgilagan:

**QQS stavkasi — 19%**

**Aksiz solig'i — 0%**

**Tariflar:**

Kelib chiqishi	O'ichov birligi	Boj stavkasi	Qonunchilik
ERGA OMNES	Uchinchi mamlakatlar solig'i	18%	R2031/01
OSP (Umumiy rejim), Tailand va Xitoydan tashqari	Erkin muomalaga chiqarish (cheklash)	14,5%	R0978/12



## 5

## Yevropa Ittifoqi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash

Mahsulot yoki xizmat Yevropa Ittifoqi standartlari va boshqa me'yoriy hujjalarda belgilangan talablarga javob berishini ta'minlashning eng ishonchli usuli mahsulot yoki xizmatni sertifikatlashdir. Sertifikatlash sifat menejmenti tizimlarini dastlabki sinov dan o'tkazish va baholashni, keyin esa sifat menejmenti tizimining monitoringini o'z ichiga oladi. Boshqa sertifikatlashtirish sxemalari dastlabki sinov va kuzatuv bilan cheklangan, boshqalari esa faqat sinov bilan cheklangan.



**Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash jiddiy va puxta sifat nazoratini talab qiladi, shuning uchun Yevropa Ittifoqi direktivalari tomonidan ushbu mahsulotlarga qo'yiladigan talablar juda qattiq va ishlab chiqarish maydonchasida majburiy tekshiruv auditini o'z ichiga oladi.**

Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qilish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash tartiblarini belgilaydigan, Yevropa Parlamenti oziq-ovqat qonunchiligining umumiy tamoyillari va qoidalarini tasdiqlovchi, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Yevropa organini tashkil etuvchi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq tartiblarni belgilovchi Nizomni (Reglament) ishlab chiqdi.

Nizom taklif etilayotgan mahsulotlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda iste'molchilarining salomatligi va manfaatlarni yuqori darajada himoya qilish, shu bilan birga ichki bozorning samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan fundamental qoidalarni o'z ichiga oladi. Ushbu Nizom Yevropa Ittifoqi davlatlarining ichki bozorlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishni tartibga soladi va ularning aylanishini nazorat qiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlardagi sertifikatlashtirish tartiblari MDH davlatlari tartiblaridan deyarli farq qilmaydi. Eksport qilinuvchi mahsulot Yevropa standartlariga muvofiqligini tasdiqlamagan hollarda, talablar yoki standartlarni uyg'unlashtirish orqali mahsulotni kerakli muvofiqlikka «olib kelish» mumkin.

Odatda, shartnoma tuzilgan paytdan boshlab muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik deklaratsiyasini olishgacha bo'lgan butun jarayon ikki-uch haftadan ko'p bo'limgan vaqt ni oladi. Sertifikatlash jarayoni amalga oshiriladigan standart talablariga muvofiq, ishlab chiqarish texnologiyasining standartga muvofiqligini tekshirish talab etilsa, biroz ko'proq vaqt kerak bo'ladи.

Yevropa Ittifoqi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash jarayonining bosqichlari:

- mahsulot va uning ishlab chiqarilgan joyi haqidagi birlamchi ma'lumotlarni tahlil qilish;



- muayyan ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarga muvoqiligini baholash uchun ekspert-auditorning ishlab chiqarish joyiga borib tekshirishi lozim;
- ushbu mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladigan tarkiblar va qoidalarda nazarda tutilgan ma'lum ko'satkichlar bo'yicha mahsulotning o'zini sinab ko'rish uchun prototiplarni tanlash;
- ishlab chiqarish auditni ma'lumotlarini tahlil qilish va ishlab chiqarish jarayonlari muayyan qoidalarga mos kelmagan taqdirda tavsiyalar ishlab chiqish;
- tanlangan mahsulot namunalarini akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda qoidalar yoki unga ko'satma talablari bilan belgilanadigan ko'satkichlar bo'yicha sinovdan o'tkazish;
- jarayonning ijobiy natijasi bo'lsa, mahsulotga Yevropa Ittifoqi reestrida ro'yxatdan o'tgan holda tegishli sertifikat berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi «**Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-6240-son Farmoniga asosan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o'rinnlarda — O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi) tashkil etildi.**

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha respublika davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi «O'zstandart» agentligining huquqlar, majburiyatlar va kelishuvlar, shu jumladan xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

«O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risida»gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagи «O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash va O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati boshqarmasi to'g'risida»gi 114-son qarori bilan tasdiqlangan.



Agentlik huzurida quyidagi kollegial organlar tashkil etilgan va faoliyat yuritadi:

- O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi boshqaruvi. Hay'at tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-maydagi 439-son qarori bilan tasdiqlangan;
- O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Apellyatsiya kengashi. Apellyatsiya kengashining tarkibi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Bosh direktorining 2022-yil 2-noyabrdagi 59-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.



#### **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdag'i 114-sonli qaroriga asosan «O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi»ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida», «Standartlashtirish to'g'risida», «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida», «Muvofiqlikni baholash to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta'minlash;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro standartlarni, shu jumladan, sifat menejmenti tizimi bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishga doir yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasini rivojlantirish hamda mazkur sohadan ilmiy-teknik axborotni tarqatish, shuningdek, sohani xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlash;
- mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning sifati va xavfsizlik talablariga rioya qilinishi va iste'molchilar huquqlarini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlari dan himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;
- mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va mahsulotlarni texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiq sertifikatlashtirish;



- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulotlar muvofiqligini baholash masalalarida qulay sharoitlar yaratish, xalqaro tashkilotlar bilan milliy muvofiqlikni ba-holash va sinov hamda o'lchash natijalarining asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo'naltirilgan hamkorlikni faollashtirish;
- texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish, realizatsiya qilinadigan mahsulotlar xavfsizligini tizimli nazorat qilishni ta'minlashda ularning samaradorligini oshirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, tadbirdorlik sub'ektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari turlarini ken-gaytirish;
- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishining oldini olish va profi-laktikasini amalga oshirish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi masalalarda sanoat korxonalariga va tadbirdorlik sub'ektlariga har tomonlama ko'maklashish;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi ta'minlanishi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;
- davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari huzurida tashkil etiladigan standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- manfaatdor tomonlarni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar bilan bel-gilangan tartibda ta'minlash;
- standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning xalqaro talablar bilan zarur uyg'unlashtirish darajasiga erishish;
- korxonalarda texnik reglament va standartlar talablariga rioya etmaganlik uchun korxona va tarmoq rahbarlariga taqdimnomalar kiritish;
- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya va metrologiya sohasini rivojlantirishning asosiy indikatorlari bo'yicha ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'z faoliyatini amaldagi Qonunchilikka ko'ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi.

*Ozbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo Vazirligi huzuridagi  
Eksportni rag`batlantirish agentligi topshirigiga asosan*

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining «Markaziy Osiyoda  
savdoni rivojlantrishga ko'maklashish» Ioyihasi ko'magida*

*Tuzuvchilar: OOO Pirsum, Vladimir Galperin.*







Toshkent 2023-yil